

OLIMPIYA BILIM ASOSLARI



Активация
Чтобы активир

Olimpiya bilim asoslari

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA MUTAXASSISLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
NUKUS FILIALI**

**OLIMPIYA BILIM ASOSLARI
moduli**

O'QUV-USLUBIY MAJMUUA

Malaka oshirish kursi: Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

Tinglovchilar kontingenti: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida
faoliyat yuritayotgan jismoniy
tarbiya fani o'qituvchilari

Olimpiya bilim asoslari

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti rektori tomonidan 202__“__”__da tasdiqlangan ishchi dasturga muvofiq tayyorlangan.

Mazkur o'quv-uslubiy majmua “Sport boshqaruvi” kafedrasining 20__ yil “__”__da o'tkazilgan yig'ilish __-sonli bayoni bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

Tuzuvchilar:

Z.Xadiyatullayev Institutning “Sport boshqaruvi” kafedrası dotsent v.v.b.

D.Norqulov Farg'ona filialining “Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati” kafedrası p.f.b.f.d. (Phd) dotsent.

A.Xojametov Nukus filialining “Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati” kafedrası p.f.b.f.d. (Phd) dotsent v.v.b.

Taqrizchilar:

F.Abdullayev Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining “Sport boshqaruvi” kafedrası mudiri p.f.n., dotsent

V.Anashov O'zDJTSU “Boks, qilichbozlik nazariyasi va uslubiyati” kafedrası katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d (Phd), professor

O'quv uslubiy majmua Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Ilmiy kengashida “Sport boshqaruvi” kafedrası tavsiyasiga asosan tasdiqlangan. (202__-yil __da o'tkazilgan __-son bayonnoma)

M U N D A R I J A

I. ISHCHI DASTUR	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN TA’LIM METODLARI	9
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLAR	17
IV. GLOSSARIY	73
V. TESTLAR BANKI	75
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	83

I. ISHCHI O‘QUV DASTURI

Olimpiya bilim asoslari

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini zamon talabiga moslashtirish uchun sport ta'limi muassasalarida olimpiya bilimlari asoslari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

Jahonda Olimpiya harakatining asosiy davrlari va rivojlanish konuniyatlarini;
O'zbekiston milliy Olimpiya qo'mitasining tashkil topishi, uning maqsadi va vazifalarini;

O'zbekistonda Olimpizm sport harakatining ma'naviy asoslarini;

O'zbekistonda Olimpiya harakatining rivojlanishi va xususiyatlarini;

Mustaqil O'zbekiston sportchilarining xalqaro sport maydonidagi yutuqlarini bilish va tahlil etish hamda baholay olish ko'nikmalarini shakllantirish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Olimpiya bilim asoslari” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

Olimpiya o'yinlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy ahamiyati haqida tushunchaga ega bo'lishi;

Olimpizm tushunchalari va ularning mohiyati haqida ma'lumotga ega bo'lishi;

Xalqaro Olimpiya xarakatining rivojlanish tarixini bilishi;

O'zbekistonda Olimpiya harakatining rivojlanishi va xususiyatlari kabi bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o'quv rejadagi “Jismoniy tarbiya va sportda xorijiy tajribalar”, “Ommaviy sport, sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish uslubiyati” kabi o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda tinglovchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning sport ta'limidagi o'rni

Turli xalqaro musobaqalarda O'zbekiston sportchilari shoxsupada yuqori o'rinlarni olib davlatimizni xorijiy mamlakatlarda shon-shuxratini Yanada oshirmoqda.

Olimpiya bilim asoslari

SHuning uchun Olimpiya bilimi asoslari faniga alohida talablar qo'yiladi. Respublikamizdagi sport tashkilotlariga yuqori malakali mutaxassislar kerak bo'lmoqda. SHuning uchun ushbu fan umumkasbiy fani hisoblanib, jismoniy tarbiya va sport sohasining ajralmas bo'g'inidir.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Mavzular	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soatlarda					
		H a m m a s i	Auditoriyadagi o‘quv yuklamasi				M u s t a q i l t a y y o r g a r l i k
			Jumladan				
			J a m i	N a z a r i y	A m a l i y m a s h g‘ u l o t	K o‘ c h m a s h g‘ u l o t	
1.	Qadimgi Olimpiya o‘yinlari tarixi	2	2	2			
2.	Zamonaviy Olimpiya harakatining qayta tiklanishi	2	2	2			
3.	O‘zbekistonda Olimpiya harakatining rivojlanishi	2	2	2			
	Jami:	6	6	6			

NAZARIY TA'LIM MAZMUNI

1-Mavzu. Qadimgi Olimpiya o'yinlari tarixi.

Reja:

- 1.Qadimgi Olimpiya o'yinlari tarixi.
- 2.Qadimgi Olimpiya o'yinlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyati.

Qadimgi Olimpiya o'yinlari tarixi. Qadimgi Olimpiya o'yinlarining tashkil etilishi va o'tkazilishi. Qadimgi Olimpiya o'yinlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyati.

2-Mavzu. Zamonaviy Olimpiya harakatining qayta tiklanishi

Reja:

1. Olimpiya o'yinlarini qayta tiklash g'oyasining rivojlanishi va hayotga tatbiq etilishi.

2. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi.

Zamonaviy Olimpiya harakatining qayta tiklanishi. Olimpiya o'yinlarini qayta tiklash g'oyasining rivojlanishi va hayotga tatbiq etilishi. Xalqaro Olimpiya qo'mitasining faoliyati. Osiyo o'yinlari, jahon birinchiliklari. Olimpiya o'yinlarida doping nazorati.

3-Mavzu. O'zbekistonda Olimpiya harakatining rivojlanishi.

Reja:

1. O'zbekistonda Olimpiya harakatining rivojlanish davrlari.

2. O'zbekiston sportchilarning Olimpiya va xalqaro sport maydonlardagi ishtiroki va yutuqlari.

3. O'zbekiston Olimpiya va Paralimpiya shon-shuxrati muzeyi.

O'zbekistonda Olimpiya harakatining rivojlanishi. O'zbekistonda Olimpiya harakatining rivojlanish davrlari. O'zbekiston sportchilarining xalqaro sport maydonlardagi yutuqlari. O'zbekiston Olimpiya va Paralimpiya shon-shuxrati muzeyi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modulni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimediya mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2018. – 592 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019. – 400 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019. – 592 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2020. – 400 b.

Olimpiya bilim asoslari

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

5. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-394-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/-2742233>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5077667>

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi "2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi PQ-5281-son qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrda "Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va "workout" sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5282-son qarori.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi 355-son "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-6093267>

III. Maxsus adabiyotlar

1. Islomova X.F., Turdiyev F.K., Xadiyatullayev Z.SH., Turdonova S., "Basics of olympic knowledge". (ingliz tilida). [Matn]: O'quv qo'llanma. Toshkent.: "Umid design", 2022. – 175 b.

2. Normurodov A.N., Morgunova I.I. Olimpiya ta'lim asoslari. Darslik. – Toshkent: ITA PRESS, 2019. – 143 b.

3. Sobirova L. Olimpiya va paralimpiya tarixi va o'yin qoidalari [Matn]: O'quv qo'llanma// L.Sobirova. – Toshkent: "O'zkitobsavdo", 2020. – 140 b.

4. To'xtamirzayev M., Turdiyev F.K., Rasulova M., "Olimp sari". (o'zbek va rus tillarida). Toshkent.: "Navro'z", 2017.

5. Xadiyatullayev Z.SH., "Olimpiya bilim asoslari". (o'zbek tilida). [Matn]: O'quv qo'llanma. - Toshkent.: "Umid design", 2022. – 177 b.

6. Xo'jayev F., Xo'jayeva S. Jismoniy tarbiya tarixi. [Matn]: Darslik// F.Xo'jayev, S.Xo'jayeva.-Toshkent: "Umid Design", 2021.-271 b.

7. Xojmetov A, Abatov J, Xadiyatullayev Z, Axmedov A. "Dene tárbiyasí hám Olimpiya oýınları tariyxı". (Oqıw qollanba) Nókis, 2023. – 182 b.

8. Jumanov O.S., Abdullayev F.T., Turdiyev F.K., Xadiyatullayev Z.Sh. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi [Matn]: Darslik// O.S.Jumanov, F.T.Abdullayev, F.K.Turdiyev, Z.Sh.Xadiyatullayev – Toshkent: "Zamon poligraf", 2023. – 322 b.


Elektron ta’lim resurslari

1. [http:// www.edu.uz](http://www.edu.uz)
2. [http:// www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)
3. [http:// www.olympic.uz](http://www.olympic.uz)
4. [http:// www.sportedu.uz](http://www.sportedu.uz)

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN TA’LIM METODLARI

“Nima uchun?” texnologiyasi.

Nima uchun sxemasi mavjud muammoni keltirib chiqargan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi sxemadir. Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib muammoni hal etish qiyin. Muammoni echimini topish uchun uni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va yo‘qotish talab etiladi. Tinglovchilarda sabab-oqibat qonuniyati asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim. Ushbu sxema tinglovchilarda aynan ana shu xususiyatni rivojlantiradi. Tinglovchilarda tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.



Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Olimpiya bilim asoslari

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

“VEER” texnologiyasi umumiy mavzuni ayrim tarmoqlarini muxokama qiluvchi kichik guruhlarining har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

“VEER” texnologiyasi mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

- boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirish;

- mavzuni o'rganish jarayonida; uning asosiylarini anglab etish:

- yakunlash bosqichida; olingan bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik - biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.

Fazilat-ijobiy sifat.

Nuqson-nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa-muayyan bir fikrga, mantiqiy, qoidalar bo'yicha dalildan natajaga kelish.

FSMU texnologiyasi.

(F) - fikringizni bayon eting.

(S) - sababini ko'rsating.

(M) - misol (dalil) keltiring.

(U) - umumlashtiring.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, baxs- munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminar yakunida (tinglovchilarning o'quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda tinglovchilarning, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egalaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatini o'rgatadi.

Ushbu texnologiyaning asosiy maqsadi tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa ifoda etib, tasdiqlovchi dallillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi. Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqich.

-o'qituvchi tinglovchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo'lgan muammoni, yoki o'rganilgan bo'limni belgilab oladi;

Olimpiya bilim asoslari

-o'qituvchi o'quv mashg'ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo'lib ishlanishi haqida tinglovchilarga ma'lumot beradi:

-mashg'ulot davomida har bir tinglovchi o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o'tiladi.

2-bosqich.

Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F- fikringizni bayon eting.

S - fikringizni bayon etishga sabab ko'rsating.

M - ko'rsating sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qozozdagi FSMU ning 4 bosqichini o'z fikrlarini yozma bayon etgan holda to'latadi.

3-bosqich.

-Har bir tinglovchi o'z qog'ozlarini to'latib bo'lgach, O'qituvchi ularni kichik guruhlariga bo'linishlarini iltimos qiladi yoki o'zi turli guruhlariga bo'lish usullaridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlariga bo'lib yuboradi:

-o'qituvchi har bir guruhda **FSMU** texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi:

-o'qituvchi kichik guruhlariga har birlari yozgan qog'ozlardan fikr va dallillarni katta formatdagi umumlashtirgan holda 4 bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etadi.

4-bosqich.

-Kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi o'zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtirib o'tadi. Guruh a'zolarining barcha fikrlari o'rganilgach, kichik guruh a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi:

-guruh a'zolari **FSMU** ning 4 bosqichini har biri bo'yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko'radilar:

-fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o'z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5-bosqich.

-Kichik guruhlarda umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar:

Guruh vakili har bir bosqichni alohida o'qiydi iloji boricha izoh bermagan holda. Ba'zi bo'limlarni isbotlash ya'ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o'tishi mumkin.

6-bosqich.

-o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi;

-quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojat qiladi:

-ushbu texnologiyadan nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o'rgandingiz?

-ushbu texnologiyani o'quv jarayonida qo'llanilishi qanday samara berdi?

-ushbu texnologiyani qo'llanilishi o'quv tinglovchilarda qanday hislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

-ushbu texnologiyaning o'quv jarayonining qaysi bosqichida qo'llanilgani ma'qul va nima uchun?

-ushbu texnologiyani dars jarayonida qo'llanilishi tinglovchilarga nima beradi va nimaga o'rgatadi?

-ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o'tkazish mumkin?

Pinbord texnikasi

(inglizchadan: pin – mahkamlash, board – doska)

Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashni amalga oshirishga, kollektiv tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi



O'qituvchi taklif etilgan muammo bo'yicha o'z nuqtayi nazarlarini bayon qilishni so'raydi. To'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini taklif qiladi. (rag'barlantiradi).



Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so'zdan ko'p bo'lmagan) sifatida alohida qog'ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.



Olimpiya bilim asoslari

- Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda
- Yaqqol xato bo'lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar
 - Bahsli bo'lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;
 - Fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilarini aniqlaydilar;
 - Shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog'oz varaqlaridagi) guruhlariga ajratiladi;
 - Ularning o'zaro munosabatlari chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadilar: kollektivning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.

Nazorat topshirig'i "To'g'ri- noto'g'ri " metodi.

T/r	Savollar	To'g'ri	Noto'g'ri
1.	Qadimgi Olimpiya o'yinlarida ozod grek fuqarolari ishtirok etadi.		
2.	Qadimgi Olimpiya o'yinlari g'olibi olimpionik.		
3.	Zamonaviy Olimpiya o'yinlari asoschisi Demetrius Vikelas.		
4.	Per de Kuberten "Olimpizm otasi" nomi bilan atashadi.		
5.	Demetrius Vikelas Xalqaro Olimpiya qo'mitasining birinchi Prezidenti.		
6.	Xalqaro Olimpiya qo'mitasi ta'sis etgan muzeylar soni 10 ta.		
7.	Obid Nazirovich Nazirov O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining birinchi Prezidenti.		
8.	2016-yil Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi 21 ta medalni qo'lga kiritgan.		
9.	2020-yil Tokioda bo'lib o'tgan yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi 5 ta medalni qo'lga kiritgan.		
10.	XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlari AQSH (Los-Andjeles) davlatida bo'lib o'tadi.		

Javobi:

T/r	Savollar	To'g'ri	Noto'g'ri
1.	Qadimgi Olimpiya o'yinlarida ozod grek fuqarolari ishtirok etadi.	+	
2.	Qadimgi Olimpiya o'yinlari g'olibi olimpionik.	+	
3.	Zamonaviy Olimpiya o'yinlari asoschisi Demetrius Vikelas.		+
4.	Per de Kuberten "Olimpizm otasi" nomi bilan atashadi.	+	
5.	Demetrius Vikelas Xalqaro Olimpiya qo'mitasining birinchi Prezidenti.	+	
6.	Xalqaro Olimpiya qo'mitasi ta'sis etgan muzeylar soni 10 ta.		+
7.	Obid Nazirovich Nazirov O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining birinchi Prezidenti.	+	

Olimpiya bilim asoslari

8.	2016-yil Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi 21 ta medalni qo'lga kiritgan.		+
9.	2020-yil Tokioda bo'lib o'tgan yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi 5 ta medalni qo'lga kiritgan.	+	
10.	XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlari AQSH (Los-Andjeles) davlatida bo'lib o'tadi.		+

Ma'ruza mashg'ulotini tashkil etishning shakl va hususiyatlari:

T/r	Ma'ruza shakllari	O'ziga xos tavsiflovchi xususiyatlari
1.	Kirish ma'ruzasi	Fan to'g'risida yaxlit tasavvur hamda ma'lum yo'nalishlar beradi. Pedagogik vazifasi: tinglovchini ushbu fanning vazifalari va maqsadi bilan tanishtirish, kasbiy tayyorgarlik tizimida uning o'rni va rolini belgilash, kursning qisqacha sharhini berish, fanning yutuqlari va taniqli olimlar nomlari bilan tanishtirib, kelajakdagi izlanishlarning yo'nalishini belgilash, tavsiya qilingan o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlilini berish, hisobot va baholashning muddatlari va shakllarini belgilash.
2.	Ma'ruza axborot	Ma'ruzaning odatdagi an'anaviy turi. Pedagogik vazifasi: o'quv ma'lumotlarini bayon qilish va tushuntirish.
3.	Sharhlovchi ma'ruza	Bayon qilinayotgan nazariy fikrlarning o'zagini, ilmiy tushunchalar va butun kurs yoki bo'limlarining konseptual asosini tashkil etadi. Pedagogik vazifasi: ilmiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish, fanlarning o'zaro aloqadorligini ochish.
4.	Muammoli ma'ruza	Yangi bilimlar qo'yilgan savol, masala, holatning muammoliligi orqali beriladi. Bunda tinglovchi, o'qituvchi bilan birgalikdagi bilish jarayoni ilmiy izlanishga yaqinlashdi. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv axborotining mazmunini ochish, muammoni qo'yish va uni echimini topishni tashkil qilish, hozirgi zamon nuqtai nazarlarini tahlil qilish.
5.	Vizual ma'ruza	Ma'ruzaning mazkur shakli vizual materiallarni namoyish etish hamda ularga aniq va qisqa sharhlar berishga qaratilgan. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotlarini o'qitishning texnik vositalari va audio, videotexnika yordamida berish.
6.	Binar (ikki kishilik) ma'ruza	Bu ma'ruza ikki o'qituvchining yoki ikkita ilmiy maktab namoyondasining, o'qituvchi-tinglovchining dialogidan iborat. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotlarining mazmunini yoritish.
7.	Avvaldan rejalashtirilgan xatoli ma'ruza	Xatolarni izlashga mo'ljallangan mazmuni va uslubiyatida, ma'ruza oxirida tinglovchilar tashxisi o'tkaziladi va qilingan xatolar tekshiriladi. Pedagogik vazifasi: yangi materiallar mazmunini yoritish, berilgan ma'lumotni doimiy nazorat qilishga tinglovchilarni rag'batlantirish.

Olimpiya bilim asoslari

8.	Ma'ruza konferensiya	Avvaldan qo'yilgan muammo va dokladlar tizimi (5-10 minut) dan iborat ilmiy-amaliy dars sifatida o'quv dasturi chegarasida o'tiladi. Dokladlar birgalikda muammoni har tomonlama yoritishga qaratilishi kerak. Mashg'ulot oxirida o'qituvchi mustaqil ishlar va tinglovchilarning ma'ruzalarga yakun yasab, to'ldirib, aniqlashtirib xulosa qiladi. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotning mazmunini yoritish.
9.	Maslahat ma'ruza	Turli senariylar yordamida o'tishi mumkin. Masalan, 1) "Savol-javob" - ma'ruzachi tomonidan butun kurs bo'yicha yoki alohida bo'lim bo'yicha savollarga javob beriladi. 2) "Savol-javob-diskussiya" - izlanishga imkon beradi. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotni o'zlashtirishga qaratilgan.

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-Mavzu. Qadimgi Olimpiya o'yinlari tarixi.

Reja:

1.1. Qadimgi Olimpiya o'yinlari tarixi.

1.2. Qadimgi Olimpiya o'yinlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyati.

Tayanch tushunchalar va iboralar: *Qadimgi Olimpiya o'yinlari, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy, Zevs, Gerakl, olimpionik, yugurish, boks, kurash.*

Sport millatimizni, xalqimizni olamga yanada kengroq tanitishning, mamlakatimiz salohiyatini namayon etishining, g'urur va iftixorimizni yuksaltirishning ta'sirchan va samarali vositasiga aylangan va shunday bo'lib qoladi. Ko'plab olimpiadalarda o'zbekistonlik sportchilar sharafiga madhiyamiz yangrab, bayrog'imiz baland ko'tarilmoqda.

1.1. Qadimgi Olimpiya o'yinlari tarixi.

Tarixdan yaxshi ma'lumki, Olimpiya o'yinlari dastavval Qadimgi Yunonistonda diniy va sport bayrami sifatida o'tkazilgan. Qadimgi yunonlarning jamoat va madaniy hayotida afsona va afsonalar muhim rol o'ynaydi. Qadimgi Olimpiya o'yinlari doimiy ravishda har to'rt yilda bir marta o'tkazilgan va Zevs sharafiga bag'ishlangan. Yozma manbalarga asoslangan ma'lumotlarga ko'ra bu bayramlarning boshlanishi ikki yunon davlati – Elida va Sparta davlatlari o'rtasida tinchlik o'rnatilishi bilan bog'lanadi. Birinchi Olimpiya o'yinlari miloddan avvalgi 776-yilda bo'lib o'tgan. O'yinlar o'tkaziladigan vaqtda butun Yunonistonda «**muqaddas tinchlik**» (*ekexeyriya*) e'lon qilingan. Olimpiya o'yinlari dastlab bir kun o'tkazilgan. Miloddan avvalgi V asrga kelib, bu bayram besh kun davom etgan. Bu bayram vujudga kelgan paytida diniy bayram edi, lekin uning asosiy mazmunini atletika musobaqalari tashkil etgan.



1-rasm. Olimpiya o'yinlarida ishtirok etadigan sport turlari tasvirlangan.

Olimpiya bilim asoslari

Qadimgi Yunoniston, aniqrog'i Olimp shaxri Olimpiya o'yinlari vatani hisoblanadi, u Peloponnes yarim orolining g'arbiy qismida joylashgan. Olimpiya o'yinlari mash'alasi Alfey daryosi vodiysidagi Kronos tog'ida yoqiladi. Mash'ala estafetasi shu yerdan o'yinlar poytaxtigacha davom etadi.

Birinchi afsona "Zevs-chaqmoqchi" o'zining bolalarining yutib yuboradigan otasi-Kronosni yengish munosabati bilan, ushbu sanaga bag'ishlab o'yinlarni o'tkazishga amri vojib etdi. O'yinlarga hududni nomi berildi.




2-rasm. Olimpdagi Zevs haykali.

Ikkinchi afsona Zevsni o'g'li Geraklni 24 to'rt qaxramonligiga bag'ishlanib tashkil etilgan, Afsonalarga ko'ra, Zevsning (chaqmoq va momaqaldir oq xudosi) Kronos xudosini yengadi va ushbu g'alaba sharafiga Zevs sport o'yinlarni o'tkazishni buyuradi.



3-rasm. Olimpdagi Gerakl haykali.

Yana bir afsonaga ko'ra, Zevsni o'g'li Gerakl o'yinlarni tashkil qilgan. Olimpiya o'yinlari Geraklning eng shavkatli g'alabalaridan biriga bag'ishlangan. Gerakl o'z oyoqlari kafti bilan yugurish masofasini belgilagan va u 600 yuz oyoq qadamiga 192 metr 27 santimetrga to'g'ri kelgan. Qadimgi Yunonistonda bu o'lchov "stadiy" deb yuritilgan, shundan "stadion" so'zi kelib chiqqan. Olimpiya o'yinlarini g'oliblarini – "Olimpionik" deb atashgan. Qadimgi Olimpiya o'yinlariga sportchilarni tayyorlash uchun ularga davlat tomonidan rahbarlar tayinlangan ular – "pedonom" deb atalgan.




4-rasm. Olimpiya o'yinlari g'olibi Olimpionik.

Olimpiya o'yinlarida faqat ozod bo'lib tug'ilgan greklargina qatnashgan. Qullar, ayollar va chet elliklar o'yinlarda qatnashish huquqiga ega bo'lmaganlar.

O'g'il bolalar 7-16 yoshgacha o'qishga, musiqa va ashula etishga o'rgatishgan. 12-14 yoshdan gimnastika maktabi-palestra qatnay boshlaganlar. Palestra ochiq maydonlar, yugurish yo'lakchalar, gimnastik zallardan iborat bo'lgan. Badavlat insonlarni bolalari 16-yoshdan gimnaziya o'qish tizimiga kirishgan. 18-yoshdan xarbiy tashkilot efefiyaga kirishgan. Qadimda greklarda asosan gimnastika va agonistikadan iborat bo'lgan.

Antik davr Olimpiya o'yinlari dasturiga yakkakurashlarning uch turi – boks, kurash va pankration, shuningdek, yugurish, uzunlikka sakrash, nayza va bosqon uloqtirish, chavandozlar hamda pentatlon musobaqalari kiritilgan.




5-rasm. Olimpiada dasturiga kiritilgan yugurish musobaqasi.

Yugurish bo'yicha musobaqalar quyidagi turlarni:

Bir stadiyaga yugurish (192,27 m) – stadionning bir boshidan ohirigacha yugurish;

Ikki stadiyaga yugurish (384,54 m) – stadionning ohiriga yetib borgach, ustunni aylanib ortga qaytib kelish;

Uzoq masofaga yugurish – 7 stadiyadan to 24 stadiyagacha yugurish.



6-rasm. Olimpiada dasturiga kiritilgan boks musobaqasi.

Boksçilar kaftlari va barmoqlarini maxsus tasmalar bilan o‘rab olishgan. Raqib zarbasini o‘tkazib yubormay g‘alaba qozongan boksçilar alohida hurmatga loyiq topilgan. Raqibni quchoqlab olish, chalish, oyoq bilan tepish taqiqlangan. Agar asosiy vaqtda g‘olib aniqlanmasa, mudofasiz jang davom ettirilgan. Jang qarshilik ko‘rsatishga holi qolmagan bokschi qo‘lini ko‘tarib taslim bo‘lgunga qadar davom etgan.



7-rasm. Olimpiada dasturiga kiritilgan kurash musobaqasi.

Qoidaga ko‘ra, zarba berish taqiqlangan, lekin raqibni turtish mumkin bo‘lgan. Kurash harbiy mashqlarning shakli sanalgan. Polvonlardan biri yengilganini tan olmaguncha bellashuv davom etirilgan.




8-rasm. Olimpiada dasturiga kiritilgan pankration musobaqasi.

Boks va kurash usullarni birlashtirgan yakkakurash usuli. Pankration murakkab sport turlaridan biri hisoblanadi.



9-rasm. Olimpiada dasturiga kiritilgan sakrash musobaqasi.

Sakrash chogʻida atletlar qoʻlda tosh yoki maxsus yukni koʻtarib olishgan va yerga tushishdan avval uni ortga otishgan. Bu uzoqroqqa sakrashga yordam beradi deb sanalgan.




10-rasm. Olimpiada dasturiga kiritilgan bosqon uloqtirish musobaqasi.

Bosqon uloqtirish – eng qadimiy sport turlaridan biri. Bosqonlar tosh va bronzadan yasalgan, ularning vazni 2-6 kg, diametr – 21-34 sm boʻlgan.



11-rasm. Olimpiada dasturiga kiritilgan chavandozlar musobaqasi.

Otchopardagi musobaqalar kattalar va yoshlar oʻrtasida oʻtkazilgan. Poygada otlar va toylar alohida qatnashgan. Otchopardagi musobaqada ot egasi gʻolib deb eʼlon qilingani eʼtiborga loyiq.



12-rasm. Olimpiada dasturiga kiritilgan pentatlon musobaqasi.

Pentatlon – bir stadiya yugurish, bosqon va nayza uloqtirish, uzoqqa sakrash hamda kurashdan iborat beshkurashdir. Barcha turlar bir kun mobaynida o‘tkazilgan.

1.2. Qadimgi Olimpiya o‘yinlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyati.

1. Iqtisodiy ahamiyati – Olimpiya shahri savdo sotiqlik markaziga aylangan va polislar (viloyatlar) aro shartnomalar tuzilgan;

2. Siyosiy ahamiyati – Olimpiya o‘yinlar tufayli urushlar to‘xtatilgan, polislar o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar yaxshilangan.

3. Xarbiy ahamiyati – davlatlar o‘z harbiy qudratini va jangchilarni harbiy va jismoniy tayorgarligini namoyish qilingan.

4. Madaniy ahamiyati – Olimpiya o‘yinlarning madaniy dasturida faylasof, matematik, tarixchi olimlar, shoir va yozuvchilar o‘z asarlari bilan qatnashgan.

Olimpiya musobaqalarining eng qadimgi turi bir 1 stadiy (192 metr 27 santimetr) yugurishdan iborat edi. 14-o‘yinlardan boshlab, musobaqalar dasturiga 2 stadiyaga yugurish, 15-o‘yinlaridan boshlab esa chidamliligini sinash uchun yugurish kiritilgan. 18-o‘yinlardan boshlab, musobaqa pentatlon (beshkurash) bilan to‘ldirildi. Bu vaqtlarda musobaqalar dasturiga kurash, qo‘l jangi, ot aravalarda poyga va pankration (qo‘l jangi va kurash) kiritilgan.

Qadimgi Olimpiya o‘yinlariga faqat erkin yunonlar qatnashishi huquqiga ega bo‘lganlar. Olimpiya o‘yinlarga qullar, ayollar, bolalar, xorijiyalar, jinoyatchilar va qurollangan odamlar kiritilmagan. 37-o‘yinlardan (miloddan avvalgi 632-yil) boshlab Olimpiya o‘yinlarida bolalar qatnashgan va ularning chiqishlari uchun bayram paytlarida alohida kun ajratilgan.

Qadimgi Olimpiya o‘yinlarga Ellanodiklar (hakamlar) rahbarlik qilgan; ular Elida fuqarolari orasida o‘yinlar boshlanishidan bir yil oldin chek tashlash asosida (9 kishidan – 18 kishigacha) saylangan. Ellanodiklarning vazifasi musobaqalar joyini tayyorlashdan, musobaqa qatnashuvchilarini tanlashdan, musobaqalarning borishini kuzatib turishdan va musobaqa g‘oliblariga mukofotlar berishdan iborat bo‘lgan.



13-rasm. Qadimgi Olimpiya o'yinlaridagi Ellanodik (hakamlar).

Qadimgi Yunonistonda Olimpiya o'yinlarining ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan. Ular Yunonistonning ko'pgina shaharlarini birlashuviga, quldorlarning o'zaro shartnomalar asosida tinchlik haqidagi kelishuvlariga, iqtisodiy jipslashuviga sabab bo'lgan. Bu o'yinlar ayni bir vaqtda polis quldorlarining harbiy qudratini ham namoyish qilgan.

Shunday afsona mavjudki, xudo Kronos o'g'illaridan birining qo'lidan halok bo'lishini bashorat qiluvchi tushga ishonib, Yangi tug'ilgan farzandlarini yutib yuborishni boshlagan. Uning rafiqasi Reya shunday yo'l tutadiki, navbatdagi Yangi tug'ilgan farzand o'rniga yo'rgakka tosh o'rab, uni bemehr otaga beradi, o'g'lini esa cho'ponga berib yuboradi. Bola o'sib-ulg'ayadi va chaqmoq hamda momaqaldir o'q xudosi qudratli Zevsga aylanadi. Zevs otasi bilan jangda g'alaba qozonadi va shu orqali aka-singillarini qutqaradi (ular keyinchalik xudolarga aylanishadi). U g'alaba sharafiga Zevs sport o'yinlarini o'tkazishni buyuradi va ular o'tkazilgan joy nomi bilan Olimpiya o'yinlari deb ataladi.

Olimpiya o'yinlari qadimdan eng ezozlangan bayramlardan biri hisoblangan. Qadimgi yunonlarda Olimpiya o'yinlari qahramonlari nomlarini Alfey daryosi yaqinida o'rnatilgan marmar ustunga o'yib Yozish an'anaga aylangan. Birinchi Olimpiya o'yinlarining o'tkazilgan sanasi ya'ni miloddan avvalgi 776-yil va qadimgi Olimpiya o'yinlarining birinchi g'olibi Elidalik oshpaz Koroibos to'g'risida ma'lumotlarni insoniyat ana shu marmar ustundagi yozuvlardan bilib olgan.

Qadimgi Gretsiyada jismoniy mashqlarning ikki hil usuli bo'lgan:

Gimnastika – umumiy jismoniy tarbiya;

Agonistika – maxsus tayyorgarlik va musobaqalarda ishtirok etish. Agonistika (agon-musobaqa) gimnastik o'yinlar va musiqa musobaqalaridan (musiqa, raqs, she'riyat sohalari bo'yicha) iborat bo'lgan. Qadimgi davrda Nemeya o'yinlari, Istmiya o'yinlari, Pifiya o'yinlari, Panafina o'yinlari kabi musobaqalar keng tarqalgan edi.

Nemeya o'yinlari – Zevs xudosiiga bag'ishlangan bo'lib, ilk bor miloddan avvalgi 573-yilda Argolida shahrida o'tkazilgan. Nemey o'yinlari har ikki yilda bir

Olimpiya bilim asoslari

marta – Olimpiadaning ikkinchi yilida kuz faslida va to'rtinchi yilida – qishda o'tkazilgan. Olimpiya o'yinlar dasturida yugurish, kurash, pentatlon va pankration bo'lgan. G'oliblar selderey barglari bilan taqdirlangan.

Istmiya o'yinlari – dengiz hukmdori Poseydon xudosiga bag'ishlangan. Bu o'yinlar miloddan avvalgi 572-yildan boshlab har ikki yilda bir marta – Olimpiada yilining birinchi va uchinchi yillari – bahorda Korinfda o'tkazilgan.

Pifiya o'yinlari – Delfa shahrida Apollon xudosiga bag'ishlab o'tkazilgan. Apollon sozanda, raqqos va hofizlar rahnamosi bo'lganligi uchun, dastlab o'yinlar dasturiga musiqa musobaqalari kiritilgan. Tarixiy ma'lumotlar asosida miloddan avvalgi 586-yilda yunon shaharlari o'rtasidagi urushlar qurbonlari xotirasiga bag'ishlangan ot arava poygalari ilk bor o'tkazilganligi aniqlangan. Delfa shahridagi mahalliy bayramlar miloddan avvalgi 582-yildan boshlab umumyunon o'yinlarga aylangan. Pifiya o'yinlari g'oliblari Apollon xudosiga bag'ishlab ekilgan daraxtdan uzib olingan olmalar bilan taqdirlangan, keyinchalik esa lavr daraxti novdalaridan yasalgan gulchambar berilgan.

Olimpiya o'yinlari o'z mazmunini yo'qotadi. Xristian dini kiritilganidan keyin sport o'yinlariga o'zga din marosimi sifatida baho berilib, milodiy 394-yilda rim imperator "Feodosiy - I" Olimpiya o'yinlarini taqiqlash bo'yicha formonga imzo chekadi.



14-rasm. Imperator "Feodosiy - I" va "Feodosiy - II".

395-yilda Alfey daryosi qirg'oqlarida vizantiyaliklar va gotlarning to'qnashuvi yuz beradi va keskin janglar natijasida Olimpiya vayronaga aylandi. 426-yilda (31-yildan so'ng "Feodosiy - II" xudolarga sig'inadigan ibodatxonalarni yoqib yuborishni buyuradi, 100-yildan so'ng esa ikki marta sodir bo'lgan zilzila tufayli Olimpiya vayron bo'ladi. So'ng Alfey va Kladey daryolari suvi toshib, qolgan inshootlarni ham yuvib ketadi. Olimpiya qum va botqoqlik qariga kirib ketadi. Bir yarim ming yil mobaynida Olimpiyaning shonli tarixi tuproq ostida ko'milib yotdi va Olimp erasi tugaydi.



1824-yildagina arxeolog Lord Stankof Alfey qirg'oqlarida jiddiy qazish ishlarini olib boradi va qadimgi Olimpiya shahri chizmasini tuzdi. Shu hodisa Olimpiya o'yinlarini tiklash g'oyasini rivojlantirishga turtki bo'ldi.

Nazorat savollari.

1. Miloddan avvalgi nechinchi yilda birinchi qadimgi Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan?
2. Qadimgi Olimpiya o'yinlari kimning sharafiga bag'ishlab o'tkazilgan?
3. Gerakl o'z oyoqlari kafti bilan nechi metr yurgan?
4. Qadimgi Olimpiya o'yinlarida kimlar ishtirok etishi mumkin edi?
5. Qadimgi Olimpiya o'yinlarida kimlar ishtirok etishi mumkin bo'lmagan?
6. "Stadiy" so'zidan qanday so'z kelib chiqan?
7. 1 stadiy yugurish necha metrga teng bo'lgan?
8. Olimpiya o'yinlari g'oliblarini nima deb atashgan?
9. Qadimgi Olimpiya o'yinlarida hakamlarni nima deb atashgan?
10. Imperator "Feodosiy - II" davriga kelib nima sodir bo'ldi?

2-Mavzu. Zamonaviy Olimpiya harakatining qayta tiklanishi.

Reja:

2.1. Olimpiya o'yinlarini qayta tiklash g'oyasining rivojlanishi va hayotga tatbiq etilishi.

2.2. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi.

Zamonaviy Olimpiya o'yinlarining rivojlanish davrlari va xususiyatlari. Per de Kuberten hayoti va faoliyati. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi.

Tayanch tushunchalar va iboralar: *Zamonaviy Olimpiya o'yinlari, Per de Kuberten, Olimpizmning uyg'onishi, Xalqaro Olimpiya qo'mitasi (XOQ), Olimpiya kuni, Demetrius Vikelas, Olimpizm.*

2.1. Olimpiya o'yinlarini qayta tiklash g'oyasining rivojlanishi va hayotga tatbiq etilishi.

Zamonaviy Olimpiya o'yinlari g'oyasining keng tarqalishi 1859-1880-yillarga to'g'ri keladi. Gretsiyada Olimpiya o'yinlarini tiklash haqidagi fikr shoir Panayotis Sutsosga tegishli bo'lib, uni hayotga jamoat arbobi Evangelis Sappas tatbiq etgan.

Per de Kuberten 1863-yil 1-yanvarda Parijda aristokratlar oilasida tavallud topgan (Sharl Lui de Fredi va Agata-Gabriel de Mirvillarning uchinchi farzandi). U Buyuk Britaniya va AQSHning ko'pgina kollej hamda universitetlarida sportning holatini borib ko'rgach, o'z ma'lumotlarini kengaytirishga qaror qiladi. Kuberten katta e'tiborini yoshlar hayotining asosi hisoblangan sportga qaratgan. Jumladan, Per de Kuberten regbi o'yiniga qiziqqan. Regbi bo'yicha birinchi Fransiya chempionati finalida hakamlik qilgan. Per de Kuberten sportni ommalashtirish maqsadida xalqaro sport musobaqalarini tashkil qilish to'g'risida ko'p o'yladi. Arxeologik qazilmalar natijasida qadimgi Olimpiya o'yinlariga doir bo'lgan topilmalar o'sha davrda keng jamoatchilikni qiziqtirar edi. Buni sezgan Per de Kuberten musobaqalarni tiklash loyihasini ishlab chiqdi va taklif qildi.

Fransuz hukumati topshirig'iga binoan 1889-yilda Per de Kuberten yoshlarni jismoniy tarbiyalash tajribasini o'rganadi, ko'pgina davlatlarga savolnomalar jo'natib, universitetlar, kollej va litseylarda sportni o'qitish uslubiyati bilan qiziqadi. Per de Kuberten faol, noyob tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lgan inson edi. Per de Kuberten yunonlarning 1859-1889-yillardagi musobaqalarni o'tkazish bo'yicha muvaffaqiyatsiz tajribasini hisobga olgan holda bir qator davlatlarning yirik sport arboblari Olimpiya o'yinlarini tashkil qilishga taklif qiladi.



1-rasm. Per de Kuberten.

Per de Kubertenning asosiy maqsadi Olimpiya harakatiga boshidan xalqaro maqom berishdan iborat edi. Per de Kuberten o'z maqsadi yo'lida Yevropa bo'ylab safarlar uyushtiradi, Olimpiya g'oyalari tarafdorlari bilan uchrashadi, aloqalar o'rnatadi, uyga qaytib kelgach, 1892-yil 25-noyabrda o'zining mashhur "*Olimpizmning uyg'onishi*" ma'ruzasini Sorbonna universitetida o'qib eshittiradi.



2-rasm. Fransiyaning Parij shahrida joylashgan Sorbonna universitet binosi.

1894-yil 16-23-iyun kunlari Per de Kuberten Olimpiya o'yinlarini tiklash tarafdorlarini Parijdagi Sorbonna universitetiga to'playdi va I Xalqaro sport kongressini tashkil qiladi. I Kongressda Per de Kuberten 13 ta davlatdan kelgan 72 ta vakillar qatnashdi, 21 ta davlat o'z roziligini yozma ravishda yuborgan edi. Per de Kuberten kongressda Xalqaro Olimpiya qo'mitasini (XOQ) ta'sis etish taklifini kiritadi va 1894-yil 23-iyunda Xalqaro Olimpiya qo'mitasi (XOQ) tashkil etiladi. Shu boisdan 23-iyun sanasi har yili butun danyoda qiziqish bilan kutiladigan bayram "*Olimpiya kuni*" sifatida nishonlanadi.



3-rasm. "*Olimpiya kuni*".

Xalqaro Olimpiya qo'mitasi (XOQ) tarkibiga 12 ta davlatdan 14 ta vakillar kiritilgan. I Kongress 1894-yil 16-23-iyungacha o'tkazilgan va unda to'rtta asosiy masala muhokama qilingan:

- Havaskorlik va professional sporti haqida;
- Olimpiya o'yinlari qayta tiklash to'g'risida;
- Olimpiya o'yinlarining dasturi va uni o'tkazish tartiblari;
- Xalqaro Olimpiya qo'mitasining tarkibi to'g'risida;

I Kongress Xalqaro Olimpiya harakatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Olimpiya o'yinlarining asosiy tamoyililari, qoidalari nizomini ma'qullagan. Ularni Per de Kuberten "*Olimpiya xartiyasi*" deb nomladi. Kongress Olimpiya o'yinlarini qadimgi an'ana bo'yicha to'rt yilda bir marta o'tkazish to'g'risidagi qarorni tasdiqladi.

Per de Kuberten birinchi zamonaviy Olimpiya o'yinlarini 1900-yilda Parij shahrida o'tkazishni taklif qilgan edi. Biroq Gretsiya vakili – taniqli shoir, tarjimon va jamoat arbobi Demetrius Vikelas Olimpiadani olti yil kutib o'tirmasdan, birinchi zamonaviy Olimpiya o'yinlarini 1896-yildayoq o'tkazish to'g'risida qaror chiqarishga ishtirokchilarni ko'ndiradi. Demetrius Vikelas fikrini shunday


Olimpiya bilim asoslari

asoslaydi: mayli, Parij 1900-yilda o'yinlar maydoniga aylansin, ammo zamonaviy Olimpiya o'yinlarining dsstlabkisi undan to'rt yil oldin aynan qadimgi Olimpiadalar beshigi bo'lgan yunonlar yurtida o'tishi kerak. Kongressda Per de Kubertening do'sti Demetrius Vikelasning fikri ma'qullangan va birinchi zamonaviy Olimpiya o'yinlari qadimgi o'yinlarning davomi sifatida Gretsiyada o'tkazilishiga kelishilgan. Kongressga tashrif buyurgan ikki mingga yaqin delegat birinchi zamonaviy Olimpiya o'yinlarini Gretsiya poytaxti Afina shahrida o'tkazish to'g'risidagi qarorni bir ovozdan qabul qiladi va 1896-yilda o'tkaziladi.

Xalqaro Olimpiya qo'mitasi (XOQ) – xalqaro nodavlat tashkilot bo'lib yuridik shaxs maqomi bilan assotsiatsiya shaklida tuzilgan. Olimpiya Xartiyasiga binoan Xalqaro Olimpiya qo'mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- havaskorlik sporti asosi hisoblangan jismoniy va axloqiy sifatlarni rivolantirishga yordam berish;
- yoshlarni sport yordamida o'zaro kelishuv va do'stlik ruhida tarbiyalash;
- butun dunyoga Olimpiya tamoyillarini keng yoyish, xalqlar o'rtasida yaxshi niyat muhitini yaratish;
- jahon sportchilarini har to'rt yilda bir marta Olimpiada o'yinlarida uchrashtirish.

Demetrius Vikelas



4-rasm. Xalqaro Olimpiya qo'mitasining birinchi Prezidenti Demetrius Vikelas.

I Kongressda Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tashkil qilingandan so'ng 1894-yil 23-iyun kuni birinchi Prezidenti etib gretsiyalik shoir, tarjimon va jamoat arbobi Demetrius Vikelas saylanadi. U 1896-yilgacha, ya'ni birinchi Olimpiada o'yinlari yakunlanguniga qadar Xalqaro Olimpiya qo'mitasiga rahbarlik qiladi. Xalqaro Olimpiya qo'mitasining Bosh kotib lavozimiga baron Per de Kuberten tayinlanadi.

Shunday qilib, bir yarim ming yillik tanaffusdan so'ng Olimpiya o'yinlari insoniyatga qaytariladi. Shundan buyon har to'rt yilda Olimpiya mehrobida Olimpiya mash'ali yoqiladi.

Birinchi zamonaviy Olimpiya o'yinlari Afina shahrida 1896-yil 6-aprel kuni Marmar stadionida 80 ming tamoshabin ishtirokida ochildi. Unda 14 mamlakatdan 241 atlet qatnashgan. Mazkur musobaqa Qadimgi Yunoniston davridan buyon eng yirik va keng qamrovli sport bellashuviga aylangan.

Olimpiya bilim asoslari



5-rasm. Olimpiya o'yinlarining ochilish marosimi (Afina 1896-yil).



6-rasm. Olimpiada dasturiga kiritilgan qilichbozlik va yengil atletika musobaqalari.

6-15 aprel kunlari sportning 9 turi: kurash, velopoyga, yengil atletika, suzish, sport gimnastikasi, merganlik, tennis, og'ir atletika va qilichbozlik bo'yicha bahs olib borilgan. 43 komplekt medallar egalariga topshirilgan. Ushbu musobaqada ayollar qatnashmagan. G'oliblarga kumushdan, ikkinchi o'rin egalariga bronzadan tayyolangan medallar topshirilgan. AQSH vakillari 11 ta musobaqada birinchi o'rinni egallashadi, mezbonlar esa 10 ta musobaqada zafar quchishgan.

YOZGI OLIMPIYA O'YINLARI

Yil	O'yinlar	O'tkazilgan joyi	Davlatlar	Sportchilar	Sport turlari	Medallar	1-o'rin egalagan davlatlar
1896	I	Afina	14	241	9	43	AQSH
1900	II	Parij	24	997	19	85	Fransiya
1904	III	Sent-Luis	12	651	16	94	AQSH
1908	IV	London	22	2008	22	110	Angliya
1912	V	Stokgolm	28	2407	14	102	AQSH
1916	VI	Berlin	<i>O'tkazilmagan</i>				
1920	VII	Antverpen	29	2626	22	154	AQSH
1924	VIII	Parij	44	3089	17	126	AQSH
1928	IX	Amsterdam	46	2883	14	109	AQSH
1932	X	Los-Andjeles	37	1332	14	117	AQSH
1936	XI	Berlin	49	3963	19	129	Germaniya
1940	XII	Xelsinki	<i>O'tkazilmagan</i>				
1944	XIII	London	<i>O'tkazilmagan</i>				
1948	XIV	London	59	4104	17	136	AQSH

Olimpiya bilim asoslari

1952	XV	Xelsinki	69	4955	17	149	AQSH
1956	XVI	Melburn	72	3314	17	151	SSSR
1960	XVII	Rim	83	5338	17	150	SSSR
1964	XVIII	Tokio	93	5151	19	163	AQSH
1968	XIX	Mexiko	112	5516	18	172	AQSH
1972	XX	Myunxen	121	7134	21	195	SSSR
1976	XXI	Monreal	92	6084	21	198	SSSR
1980	XXII	Moskva	80	5179	21	203	SSSR
1984	XXIII	Los-Andjeles	140	6829	21	221	AQSH
1988	XXIV	Seul	159	8391	23	237	SSSR
1992	XXV	Barselona	169	9356	25	257	MDH
1996	XXVI	Atlanta	197	10318	26	271	AQSH
2000	XXVII	Sidney	199	10651	28	300	AQSH
2004	XXVIII	Afina	201	10625	28	301	AQSH
2008	XXIX	Pekin	204	10942	28	302	Xitoy
2012	XXX	London	204	10568	26	302	AQSH
2016	XXXI	Rio-de-Janeyro	207	12500	28	306	AQSH
2020	XXXII	Tokio	206	11656	33	339	AQSH
2024	XXXIII	Parij					
2028	XXXIV	Los-Andjeles					

2.2. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi (XOQ).


Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi (XOQ) 1894-yil 23-iyun kuni Per de Kuberten tashabbusi bilan tashkil etilgan. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi tarkibiga o‘shanda 12 ta davlatdan 14 ta vakillar kiritilgan.



1-rasm. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi (XOQ).

Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi (XOQ) – xalqaro nodavlat tashkilot bo‘lib yuridik shaxs maqomi bilan assotsiatsiya shaklida tuzilgan. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining vazifasi Olimpiada harakatiga rahbarlik qilishdan iborat. Ammo uni shunchaki emas, balki Olimpiya Xartiyasiga qat’iy amal qilgan holda boshqarish talab etiladi.

Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi uchun aynan ana shunday xususiyat zarur. Chunki hukumatlar har xil bo‘lishlari mumkin – yaxshiroq, yomonroq, Olimpizm g‘oyalari esa hamisha bir xil – halol va pok.



2-rasm. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi asoschilari.

Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi majburiyatiga yozgi va qishki Olimpiya o‘yinlarini muntazam o‘tkazish, ularni doimiy takomillashtirib borish, butun dunyoda sportning rivojlanishiga rahbarlik qilish kiradi. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining oliy organi sessiya bo‘lib, u har yili, olimpiada yilida esa ikki marta chaqiriladi. Olimpiya kongresslari 8-yilda bir marta o‘tkaziladi. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi, Milliy Olimpiya qo‘mitalari va Xalqaro sport federatsiyalarini (XSF) tan olish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi sessiyalari orsida Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining kundalik faoliyatiga Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi Ijroiyy qo‘mitasi rahbarlik qiladi. Uning tarkibi hozirgi paytda 16 kishi (Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi Prezidenti va to‘rt nafar vitse-prezidenti, bosh direktor va o‘n nafar a‘zo)dan iborat.

Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining 1999-yil 11-12-dekabr kunlari bo‘lib o‘tgan 110-sessiyasida qabul qilingan qarorga muvofiq, Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi tarkibi 115 nafar a‘zo bo‘lib, ularning 15 nafari Xalqaro sport federatsiyalari yoki birlashmalari, 15 nafari Milliy Olimpiya qo‘mitalari yoki mintaqaviy assotsiatsiyalari vakillari, yana 15 nafari Olimpiada musobaqalarida ishtirok etayotgan yoki uzog‘i bilan to‘rt yil avvalgi o‘yinlarda ishtirok etgan sportchilar, 70 nafari shaxsiy a‘zolardan iborat. Ayollar Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi a‘zoligiga 1981-yildangina saylana boshlangan. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining shaxsiy a‘zolari orasida har bir mamlakatdan bittadan ortiq vakil bo‘lishi mumkin emas. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi a‘zolarining yoshi 18 dan 70 gacha chegaralab qo‘yilgan.

2003-yildan e‘tiboran Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi a‘zolari qayta saylanish huquqi bilan 8-yil muddatga saylanadilar.



3-rasm. Xalqaro Olimpiya qo'mitasini eng ko'p boshqargan Prezident Per de Kuberten.

Xalqaro Olimpiya qo'mitasi Prezidenti a'zolari tomonidan yashirin ovoz berish yo'li bilan 8-yil muddatga saylanadi, bundan keyin 4-yillik muddatga qayta saylanish imkoniyati mavjud.

Xalqaro Olimpiya qo'mitasi Prezidenti barcha sohalarda ushbu tashkilot faoliyatiga rahbarlik qiladi.

Umuman olganda o'sha davrda Olimpiya harakati yoki shunga o'xshash qandaydir mukammal tizimni tashkil qilish, bu orqali insonlar, xalqlar ma'naviy va jismoniy kamolotini ta'minlash hamda yer yuzida tinchlikni saqlash zarur edi. Bunday sharoitda Xalqaro Olimpiya qo'mitasining tashkil etilishi va Olimpiya harakatining targ'ib qilinishi o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Olimpiya o'yinlari va u bilan bog'liq tushunchalarning (masalan, Olimpiya harakati, Olimpiya g'oyalari, Olimpiya ta'limoti kabilar) yuzaga chiqishi butun bir takrorlanmas tizimning amal qilishini ko'rsatdi.

Olimpizm borasidagi fikr va mulohazalar keng qamrovlidir. Uni fan sifatida o'rganish imkoniyati ham mavjud. Bugungacha qator adabiyotlar, maqolalar va boshqa ilmiy-uslubiy nashrlar chop ettirilgan. Dunyo miqyosida Olimpiya harakatini tadqiq qilishga doir izlanishlar olib borilgan va bu jarayon izchil amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, Olimpizmning ijtimoiy-pedagogik jihatlari ham mavjud. Buni biz Olimpiya g'oyalari mazmuni yoki Olimpizm prinsiplarida nazarda tutilgan vazifalarda ko'rishimiz mumkin.

Olimpizm bir so'z bilan aytganda Olimpiya o'yinlarini targ'ib qilish to'g'risidagi g'oyalar va qoidalar tizimi. Olimpizmni rivojlantirish, uni xalqlar orasida targ'ib qilish va rivojlantirishning katta ahamiyati bor. Zamonaviy Olimpiya o'yinlari tashkil qilingan davrda aynan shunday tizimni joriy qilish lozim edi. Per de Kubertening uzoq yillar davomidagi kuzatishlari va hulosalari jamiyatda sportni rivojlantirish orqali qandaydir ijobiy natijaga erishish mumkinligini ko'rsatdi. Havaskorlik va professional sportni rivojlantirish borasida o'zining aniq takliflarini bildirdi.

Sport faqatgina jismoniy rivojlantirish, inson jismoniy imkoniyatlarini oshirish omili bo'libgina qolmay uning ma'naviy, falsafiy va ilmiy asoslari mavjudligi hamda uni xalqlar orasida rivojlantirish lozimligi to'g'risidagi fikrlar Per de Kuberten tomonidan ilgari surildi.

Per de Kuberten tomonidan bunday g'oya va takliflarning bildirilishi kutilmaganda katta qiziqish va hayrat bilan qarshi olindi. O'sha davrning ijtimoiy-psixologik holati, millatlar, xalqlar va davlatlar orasidagi o'zaro ziddiyatlar, irqchilik, milatchilik va boshqa shunga o'xshash muammolarning echimi sifatida Olimpiya o'yinlarining tashkil etilishi o'z samarasini bera boshladi.

Olimpiya bilim asoslari

Keyinchalik Olimpiya o'yinlari takomillashib bordi. Ammo bir narsa muhimki Olimpizm g'olari zamonlar o'tsa ham mohiyatan o'zgarmadi. Unda dunyoni yaxshi tomonga o'zgartirish, tinchlik va insonparvarlikni ta'minlash doimo birinchi o'rinda turadi. Olimpizmni targ'ib qilish borasidagi ishlar keyinchalik yanada ommalashib ketdi. Olimpiya o'yinlari tarkibiga yangi sport turlarining kiritilishi, sportchilar tarkibining kengayishi va boshqa sabablar evaziga Olimpizm g'oyalari tobora kengayib bordi. Rasmiy qisqartirilgan nomi – (XOQ). Olimpiya Xartiyasida Xalqaro Olimpiya qo'mitasining maqsad va vazifalari, uning ish prinsiplari belgilab qo'yilgan. Shunga ko'ra u Xalqaro Olimpiya qo'mitasi har qanday siyosatdan holi va unga aralashmaydi.



4-rasm. Olimpiya bayrog'i va ramzi.

Xalqaro Olimpiya qo'mitasining Parij Kongressida Olimpiya bayrog'i Per de Kuberten tomonidan ishlab chiqilgan. Olimpiya bayrog'i to'rtburchak shaklidagi oq matoga beshta xalqa joylashtirilgan bo'lib, ular bir-biri bilan tutashgan. Matoda chegara chiziqlari yo'q.

Zamonaviy Olimpiya o'yinlari shiori – ko'pchilik bu shiori muallifi Per de Kuberten deb o'ylaydi. Aslida bunday emas. Zamonaviy Olimpiya o'yinlari asoschisi bu so'zlarga hech qachon mualliflik da'vosini qilmagan. Ular naqadar g'alati tuyulmasin, diniy kollejlardan birining direktori, fransuz ruhoniysi Anri Didonga tegishli. Bu inson sportning insonlar, ayniqsa, yoshlar qalbiga ko'rsatadigan halollik ta'sirini birinchilardan bo'lib anglatadi.

CITIVS - TEZROQ

ALTIVS - BALANDROQ

FORTIVS - KUCHLILROQ

5-rasm. Zamonaviy Olimpiya o'yinlari shiori. Olimpiya o'yinlari, inson barkamolligini va uni imkoniyatlarini chegarasi yo'qligini ko'rsatadigan, g'oyani amaliyoti.

CITIVS - TEZROQ

ALTIVS - BALANDROQ

FORTIUS - KUCHLIROQ

6-rasm. ~~Olimpiya~~ **TOGETHER - BIRGALIKDA** shiori.

Yangi shiorning mazmuni shundaan iboratki, agar sen tezroq borishni istasang buni yakka holda amalga oshirishing mumkin. Ammo uzoqroqqa borishni istasang, buni birgalikda amalga oshirish lozim.

Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan sessiyada o'yinlar shioriga kichik o'zgarish kiritildi. Olimpiya o'yinlari shiori **“Tezroq, Balandroq, Kuchliroq – Birgalikda”** deb nomlandi. XXXII-yozgi Tokio-2020 Olimpiada o'yinlari shu shior ostida o'tkazildi.

Mashala – Olimpiya o'yinlarining eng muhim belgilaridan biri. Olimpiya o'yinlar ochiladigan shaharda u alanga oldiriladi va oxirigacha yonib turadi. Anana qadimgi Yunonistonda chuqur ildiz otgan, afsonaga ko'ra, Zevsdan olovni o'g'irlab, odamlarga taqdim etgan Olimpiya alangasi Prometey titani jasoratini eslatish vazifasini bajargan.



7-rasm. Olimpiya mashalasi

Qadimgi yunonlar olov ilohiy inom ekaniga ishonishgan va shuning uchun ular bosh ibodatxonalar oldida uni ushlab turishgan. Qadimgi Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan Olimpiya bosh ibodatxonasida ham huddi shunday edi. O'shanda alanga quyosh nurlari va parabolik shakldagi maxsus oyna yordamida uning ilohiy “pokligini” taminlash uchun yondirilgan.

Hozirgi paytda o'yinlarning tantanali ochilish marosimidan bir necha oy oldin Afinada Olimpiya olovi yondiriladi. Asosan kohinlar libosidagi 11 aktrisa ayol marosimni o'tkazishadi, ulardan biri parabolik ko'zgu yordamida o'zni tutashtiradi. Keyin estafetada qatnashadigan yuguruvchilarga mashala uzatiladi va uni bir-biriga etkazish bilan jarayon davom etadi.

Asosiy mashala bilan bir qatorda, Olimpiya alangasidan asosiy mashala yoki hatto u yoki bu sababga ko'ra olov o'chib qolganda uni saqlab turish uchun mo'ljallangan maxsus lampalar yoqiladi. O'yinlar paytida mashala o'chib qolgan bir necha holatlar ham mavjud, masalan 1976-yilda Monrealda kuchli yomg'ir paytida va 2012-yilda Londonda o'yinlardan 20 kun oldin xuddi shunday holat sodir bo'lgan edi.

Olimpiya bilim asoslari

Mashalani yoqish marosimini tashkil qilish har doim Gretsiya Milliy Olimpiya qo'mitasi zimmasiga yuklatilgan, u shuningdek yuguruvchilar tomonidan olovni Afinadagi Panatinaikos stadioniga yetib kelishini taminlaydi.



8-rasm. Olimpiya mashalasi estafetasi

Bu jarayon minglab sportchi va millionlab muxlislarni birlashtirgan Olimpiya o'yinlaridan ham ulkanroq tadbirdek tuyuladi. Sport benihoya jozibador. Ammo eng uzun Olimpiada kamida 3 hafta davom etadi. Hamma ham uni tomosha qilish imkoniyatiga ega emas. Shu sababli, Olimpiya mashalasi estafetasi – butun Yer yuzida eng yirik sport harakatiga tasir qilish uchun haqiqiy imkoniyatdir.

Olimpiya olovining keltirilishi – mezbon tomonga alohida tuyg'u bag'ishlaydi. 1936-yildan beri mashalachilarning estafeta musobaqasi o'yinlar boshlanishining ajralmas atributiga aylanib bo'ldi. Bundan tashqari, har safar olov bilan bog'liq yodda qolarli voqealar sodir bo'ladi. 1968-yilda meksikaliklar Kristofer Kolumbning yo'nalishini takrorlashga harakat qilishdi, 1976-yilda esa olov lazer nurlari yordamida uzatildi. 1980-yilda Moskvada o'tgan Olimpiya o'yinlarida mashalani taniqli sportchi Viktor Saneev Sergey Belovga uzatganini hayajon bilan yodga olishadi. Belov hayajondan sportchi qo'lidagi mashala dastasini qattiq ushlab olgach, Saneev qo'lini undan zo'rg'a bo'shatib oladi. 2008-yili Pekinga yo'l olgan mashala estafetasi ham tarixda qoldi: mashala hatto Yerning eng baland cho'qqisi – Everestga ham olib chiqildi. Xitoyliklar ushbu jarayon uchun maxsus ko'tarma ham qurishgan.

Dizayni malum bir Olimpiada uchun ishlab chiqarilgan mashalalarga alohida etibor qaratish lozim.

Olimpiya qasamyodi – Per De Kuberten har bir Olimpiya o'yinlarida hakamlar uchun qasamyod qildi. ochilish marosimlarida bir sportchi barcha sportchilar nomidan qasamyod qiladi. Olimpiya qasamyodi 1920-yilgi Olimpiya o'yinlari paytida Belgiya sardori Viktor Boin tomonidan qabul qilindi. Olimpiya qasamida shunday deyilgan:

“Barcha raqiblar nomidan men ularni Olimpiya o'yinlarida ishtirok etamiz, ularni boshqaradigan qoidalarga rioya qilamiz, sportning haqiqiy ruhida, sport shon-sharafi va sharaf uchun bizning jamoalarimiz.”



OLIMPIYA XALQALARINING RANGLARI	
KO'K	YEVROPA
QORA	AFRIKA
QIZIL	AMERIKA
SARIQ	OSIYO
YASHIL	AVSTRALIYA

9-rasm. Olimpiya xalqalarning ranglari.

Xalqalarning ranglari yuqoridan o'ngga qarab *ko'k*, *qora*, *qizil* va pastdan o'ngga *sariq*, *yashil* rangda bo'lib ular er yuzining beshta qit'asini bildiradi. Olimpiya bayrog'ida tushirilgan tasvirning mohiyati butun dunyoda birlik va hamjihatlikni targ'ib qilishdir. Xalqlar va davlatlar orasidagi o'zaro hamjihatlikni targ'ib qilish, mamlakatlar o'rtasida inoqlikni ta'minlashni nazarda tutadi.



10-rasm. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi binosi.

Xalqaro Olimpiya qo'mitasining shtab-kvartirasi *Lozanna (Shveysariya)* shahrida joylashgan.

XALQARO OLIMPIYA SPORTI TIZIMI

OLIMPIYA SPORTI	
XALQARO OLIMPIYA QO'MITASI	XALQARO SPORT FEDERATSIYALARI
MILLIY OLIMPIYA QO'MITALARI	MILLIY SPORT FEDERATSIYALARI

Xalqaro Olimpiya qo'mitasi ijroiya qo'mitasi - Xalqaro Olimpiya qo'mitasi (XOQ) Ijroiya qo'mitasi Prezident, to'rtta vitse prezident va o'nta a'zodan iborat. Ijroiya qo'mitasiga a'zolari saylash Sessiya ishtirokida yashirin ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ijroiya qo'mitasi a'zolari va vitse prezidentning faoliyat ko'rsatish muddati to'rt yil. Ijroiya qo'mitasi a'zosi ko'pi bilan kelgusi ikki saylov davriga saylanishi mumkin, ya'ni, sakkiz yilga.

Xalqaro Olimpiya qo'mitasi Ijroiya qo'mitasining vazifalari:

- Olimpiya Xartiyasiga amal qilinishi monitoringini olib borish;
- o'zining ichki boshqaruv organlari faoliyatini nazorat qilish;
- Sessiyaga taqdim qilinadigan yillik hisobotlarni tayyorlash;
- Sessiyaga Xartiya qoidalarining o'zgartirilgan takliflarini taqdim qilish;
- Xalqaro Olimpiya qo'mitasiga saylanish uchun tavsiya qilingan shaxslarning nomini Sessiyaga taqdim qilish;
- Olimpiya O'yinlarini o'tkazish uchun nomzodlar saylovini amalga oshirish va nazorat qilish;
- Sessiyalar kun tartibini belgilash;
- Xalqaro Olimpiya qo'mitasi barcha nashrlarini chiqarish va nazorat qilish;
- Xalqaro Federatsiyalar va Milliy Olimpiya qo'mitalari bilan hamkorlikda ikki yilda bir marta davriy uchrashuvlarni tashkil qilish.

Xalqaro Olimpiya qo'mitasi Ijroiya qo'mitasi Olimpiya harakatini amalga oshiruvchi asosiy organlardan hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan vazifalardan tashqari Xalqaro Olimpiya qo'mitasi Ijroiya qo'mitasi yana bir qator muhim ishlarni bajaradi. Olimpiya Xartiyasining so'nggi yillardagi nashrlarida Xalqaro Olimpiya qo'mitasi Ijroiya qo'mitasiga ko'plab vazifalar yuklatilgan. Masalan, Olimpiya o'yinlarini tashkil qilishda axborot xizmatini yo'lga qo'yish va boshqa shu kabilar.

Xalqaro Olimpiya qo'mitasi rasmiy tillari - Xalqaro Olimpiya qo'mitasi rasmiy tillari sifatida *ingliz* va *fransuz* tillari tan olingan. Sessiyalarda *fransuz*, *ingliz*, *nemis*, *ispan*, *rus* va *arab* tillaridan foydalaniladi. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi rasmiy nashrlari va boshqa hujjatlar asosan *ingliz* va *fransuz* tillarida nashr qilinadi.

Xalqaro Olimpiya qo'mitasi prezidentlari

Olimpiya bilim asoslari




Xalqaro Olimpiya qo'mitasining birinchi
presidenti - (1894-1896)

Demetrius Vikelas – (1835-1908)



GRETSIYA



Xalqaro Olimpiya qo'mitasining ikkinchi va
to'rtinchi prezidenti - (1896-1916) - (1919-1925)

Baron Per de Kuberten – (1863-1937)



FRANSIYA



Xalqaro Olimpiya qo'mitasining uchinchi
presidenti - (1916-1919 v.b.)

Baron Godfrua de Blone – (1869-1937)



SHVEYSARIYA



Xalqaro Olimpiya qo'mitasining beshinchi
presidenti - (1925-1942)

Graf Anri de Baye-Latur – (1876-1942)



BELGIYA



Xalqaro Olimpiya qo'mitasining oltinchi
presidenti - (1942-1946 v.b.)-(1946-1952)

Yoxannes Zigfrid Edstryom – (1870-1964)



SHVESIYA

Olimpiya bilim asoslari



Xalqaro Olimpiya qo'mitasining yettinchi
presidenti - (1952-1972)

Ayveri Brendedj – (1887-1975)



AQSH



Xalqaro Olimpiya qo'mitasining sakkizinchi
presidenti - (1972-1980)

Lord Maykl Morris Killanin – (1914-1999)



IRLANDIYA



Xalqaro Olimpiya qo'mitasining to'qqizinchi
presidenti - (1980-2001)

Markiz Xuan Antonio Samaranch – (1920-2010)



ISPANIYA



Xalqaro Olimpiya qo'mitasining o'ninchi
presidenti - (2001-2013)

Graf Jak Rogge – (1942-2021)



BELGIYA



Xalqaro Olimpiya qo'mitasining o'n birinchi
presidenti - (2013 – h.v.)

Tomas Bax – (1953)



GERMANIYA

11-rasm. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi prezidentlari.

Olimpiya bilim asoslari

XALQARO OLIMPIYA QO'MITASI (XOQ) TA'SIS ETGAN MUZEYLAR

T/r	Davlat	Tashkil etilgan yili
1	Shveysariya (Lozanna)	1993-yil
2	O'zbekiston (Toshkent)	1996-yil
3	Kanada (Toronto)	1997-yil, 2004-yil
4	Gretsiya (Afina)	1998-yil, 2004-yil
5	Yaponiya (Nogano)	1998-yil

Nazorat savollari.

1. Zamonaviy Olimpiya o'yinlari asoschisi kim.
2. Per de Kuberten Sorbonna universitetida qanday ma'ruza bilan ishtirok etgan.
3. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi qachon tashkil topgan.
4. "Olimpiya kuni" qachon nishonlanadi.
5. Birinchi zamonaviy Olimpiya o'yinlari qachon o'tkazilgan.
6. Xalqaro Olimpiya qo'mitasining birinchi Prezidenti kim bo'lgan.
7. Xalqaro Olimpiya qo'mitasini eng ko'p boshqargan Prezidenti kim bo'lgan.
8. "Olimpizm otasi" nomi bilan kimni atashgan?
9. Xalqaro Olimpiya qo'mitasini hozirda boshqarib kelayotgan Prezident kim?
10. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi ta'sis etgan muzeylar soni nechta.

3-Mavzu. O'zbekistonda Olimpiya harakatining rivojlanishi.

Reja:

- 3.1. O'zbekistonda Olimpiya harakatining rivojlanish darvlari.
- 3.2. O'zbekiston sportchilarining Olimpiya va xalqaro sport o'yinlaridagi ishtiroki va yutuqlari.
- 3.3. O'zbekiston Olimpiya va Paralimpiya shon-shuxrati muzeyi.

Tayanch tushunchalar va iboralar: *O'zbekistonda Olimpiya o'yinlari, xalqaro sport o'yinlari, sportchilar, Milliy Olimpiya qo'mitasi (MOQ), Olimpizm, Olimpiya harakati, Olimpiya shon-shuxrati muzeyi.*

3.1. O'zbekistonda Olimpiya harakatining rivojlanish darvlari.

Milliy Olimpiya qo'mitasi (MOQ) – mamlakat nomidan Olimpiada harakatida vakil bo'lib qatnashuvchi tashkilot. Milliy Olimpiya qo'mitasini Xalqaro Olimpiya qo'mitasi (XOQ) tan olmasa, milliy jamoalar Olimpiada

o'yinlariga qo'yilmaydi.

Milliy Olimpiya qo'mitasi muntazam faoliyat ko'rsatuvchi hukumat tashkilotidir. Milliy Olimpiya qo'mitasining Oliy organi bosh assambleya bo'lib, u odatda, bir yilda kamida bir marta chaqiriladi. Favqulodda assambleya prezident tomonidan chaqirilishi mumkin.

Assambleyalar orasidagi davr ichida davlatimizda Olimpiya harakatiga rahbarlik qilish Milliy Olimpiya qo'mitasi ijroiyy qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Uning tarkibiga prezident, uchta vitse prezidentlar, bosh kotib, bosh direktori va yettita a'zo kiradi. Ular to'rt yil muddatga saylanadi.

Milliy Olimpiya qo'mitasi topshirig'iga ko'ra ijroiyy qo'mita qo'yidagi majburiyatlarni bajaradi: Milliy Olimpiya qo'mitasi assambleyalarning kun tartibini tayyorlaydi: Olimpiya qoidolari va intizomlari, Bosh assambleya qarorlarining bajarilishini ta'minlaydi, belgilangan tartibda Milliy Olimpiya qo'mitasi tarkibiga saylash uchun shaxslar hamda tashkilotlarni tavsiya etadi, Milliy Olimpiya qo'mitasi moliyaviy ahvoli uchun javobgar bo'ladi, yillik hisobot taqdim etadi, ma'muriy ish hamda arxivning saqlanishi uchun javobgar bo'ladi.

Prezident Milliy Olimpiya qo'mitasi Ustavida belgilangan ayrim hollarda, agar vaziyat Milliy Olimpiya qo'mitasi yoki uning ijroiyy qo'mitasi uni bajarishga imkon bermasa, shaxsan o'zi qaror chiqarishi yoki chora qo'llashi mumkin. Ushbu qarorlar keyinchalik Milliy Olimpiya qo'mitasininshg navbatdagi assambleyasida tasdiqlanadi.

Milliy Olimpiya qo'mitasida Olimpiya harakati, Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik va unda ishtirok etish, shunungidek, Milliy Olimpiya qo'mitasi faoliyat masalalari bo'yicha tavsiya ishlab chiqadigan komissiyalar tuziladi.

O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi (MOQ) – nodavlat va notijorat tashkilot bo'lib, o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Xalqaro Olimpiya qo'mitasi (XOQ), Olimpiya Xartiyasi va O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi Ustavi asosida amalga oshiradi. O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi respublikada jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo'yicha qator muhim vazifalarni bajarish bilan shug'ullanadi. O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining asosiy faoliyatlarini ichki va tashqi faoliyatlarga ajratish mumkin. Ichki faoliyatga Olimpiya Xartiyasida ko'rsatilgan tamoyillar asosida rivojlanish kiradi.



1-rasm. O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi binosi

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo‘mitasi – 1992-yil 21-yanvarda Toshkent shahrida chaqirilgan konferensiya qarori bilan tashkil topgan. 1993-yil sentabr oyida Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining 101-sessiyasida tasdiqlangan.

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi sport va jismoniy madaniyatni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, Olimpiyadaga oid ta‘lim, Olimpiya qadriyatlari ommalashtirish, xalqaro aloqalarni mustahkamlash ishlarida ishtirok etadi, sport murabbiylari va sport tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Milliy Olimpiya qo‘mitasi bilan Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi, Osiyo Olimpiya Kengashi, Milliy Olimpiya qo‘mitalari jamiyati va boshqa qator xalqaro sport federatsiyalari hamda tashkilotlari o‘rtasida mustahkam hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan.

Milliy Olimpiya qo‘mitasining maqsadlari:

- Olimpiya harakati va havaskorlar sportini rivojlantirish hamda himoya qilishga yordam berish:

- Respublikamiz sportchilarining Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etishini ta‘minlash;

- Respublikamiz va butun dunyo sportchilari o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarini rivojlantirgan hamda mustahkamlangan holda Olimpizm g‘oyalari ruhida sportning rivojlanishini rag‘batlantirib va yo‘naltirib turish. Milliy Olimpiya qo‘mitasi ushbu maqsadlarga erishish uchun xususiy shaxslar yoki hukumat tashkilotlari bilan Olimpiya harakati talablari va qoidalarga asoslangan holda hamkorlik qilish mumkin.

Ichki faoliyat qo‘ydgilardan iborat:

- O‘zbekistonda Olimpiya Xartiyasida mustahkamlangan tamoyillar asosida Olimpiya harakatini rivojlantirish;

- respublika aholisini jismonan va ma‘naviy-ruhiy tarbiyalashga ko‘maklashish;

- jismoniy tarbiya va sport bilan ommaviy bandlikni rivojlantirishda ishtirok etish;

- milliy sport turlari, nogironlar o‘rtasidagi sport turlarini rivojlantirishni

Olimpiya bilim asoslari

targ'ib qilish, davlat va jamoaviy jismoniy tarbiya va sport tashkilotlariga mamlakat terma jamoalari va sport zahiralarini tayyorlashga ko'maklashish;

- yoshlarni halol kurashish, raqibga o'zaro hurmat munosabatida va xalqlar o'rtasidagi do'stlik ruhi tamoyillari asosida tarbiyalash;

- O'zbekistonda Olimpizm g'oyalarini targ'ib qilish, insonlarni O'zbekiston Respublikasi sportchilarining muvaffaqiyatlari bilan tanishtirib borish, Olimpiya ta'limini rivojlantirish;

- sport kadrlarining malakasini oshirish va tajriba almashish bo'yicha konferensiyalar, seminarlar, kurslar tashkil etish;

- sportni qo'llab-quvvatlovchi fondlar va xayriya tashkilotlari tuzishda qatnashish; sportchilar, murabbiylar, sport hakamlari, sport faxriylarining manfaatlarini himoya qilish.

Tashqi faoliyat ham turli-tuman:

- Xalqaro arenalarda O'zbekiston Respublikasining tutgan o'rini mustahkamlash va nufuzini oshirish;

- Olimpiya o'yinlari, Osiyo o'yinlari, Butunjahon yoshlar va Markaziy Osiyo o'yinlarida mamlakat delegatsiyalariga boshchilik qilish;

- Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, Osiyo Olimpiya Kengashi, boshqa davlatlarning Milliy Olimpiya qo'mitalari, xalqaro sport birlashmalari bilan hamkorlikni rivojlantirish;

- Xalqaro Olimpiya qo'mitasining „Olimpiya birdamligi“ dasturlarida ishtirok etish;

- Respublika sport federatsiyalari va tashkilotlariga ularning xalqaro sport uyushmalari ishlarida faol ishtirok etishlariga ko'maklashish;

- xorijiy muassasalar, tashkilotlar va firmalar bilan O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha xizmat shartnomalarini tuzish va amalga oshirish;

- Xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Olimpiya harakati va sport tashkilotlari manfaatlarini taqdim etish;

- Xalqaro (nohukumat) birlashmalarga milliy davlat qonunchiligi asosida a'zo bo'lish;

- to'g'ridan-to'g'ri xalqaro aloqa va munosabatlar o'rnatish, mamlakatlar va hududlar sport uyushmalari bilan bitimlar imzolash.

1992-yil 21-yanvardan, O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi tuzilganidan boshlab amalga oshirila boshlandi. Xalqaro faoliyatni to'la amalga oshirish Xalqaro Olimpiya qo'mitasi o'zining 1993-yil sentabr oyidagi 101-sessiyasida O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasini tan olgan. O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi umumjamoa hisobida: 204 davlat orasida 47-o'rin turadi.



Oldingi holati



Bugungi holati

2-rasm. O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi ramzi

Bugungi kungacha O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasiga 9 ta prezident saylangan. Milliy Olimpiya qo'mitasi tarkibida 127 kishi va 11 ta faxriy a'zo bor. Milliy Olimpiya qo'mitasining birinchi prezidenti O.Nazirov, vitse prezidentlari S.Ro'ziyev, I.Baraban, bosh kotibi prof. A.Xamraqulov bo'lgan. 1994-yili O.Nazirov sog'lig'i tufayli prezidentlik lavozimidan iste'foga chiqdi va S.Ro'ziyev (Davlat sport qo'mitasi raisi) Milliy Olimpiya qo'mitasi prezidenti etib saylandi.

Milliy Olimpiya qo'mitasini tuzish va tasdiqlash jarayonida O'zbekiston Respublikasi Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi raisi hamda O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi birinchi prezidenti Obid Nazirovich Nazirov katta hissa qo'shdi. O.Nazirovning sermahsul mehnati rahbariyat tomonidan munosib taqdirlanib, 1983-yil iyunda u O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan trener unvoniga sazovor bo'ldi. O.Nazirov O'zbekiston "Mehnat rezervlari" KSJ raisi (1974-1984-yy., 1986-1990-yy.) O'zbekiston Respublikasi Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi raisi o'rinbosari (1984-1985-yy.), so'ngra raisi (1990-1992-yy.), 1992-yil oktyabrdan 1994-yil aprel oyigacha – O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi prezidenti etib tayinlangan. Bu yillarda uning bevosita rahbarligi ostida O'zbekiston sportchilarini xalqaro musobaqalarga hamda Barselonadagi Olimpiya o'yinlariga tayyorlash va unda ishtirok etish amalga oshirildi.

Sobiq ittifoq respublikalarida Milliy Olimpiya qo'mitasini tashkil etish hamda xalqaro sport harakatida va Barselonadagi (1992-yil.) Olimpiya o'yinlarida ishtirok etish uchun uning Xalqaro Olimpiya qo'mitasiga qabul qilinishi zarur bo'lib qoldi. Shu sababli Moskvada Xalqaro Olimpiya qo'mitasi prezidenti X.A.Samaranch hamda sobiq ittifoq respublikalarining jismoniy tarbiya harakati rahbarlari ishtirokida kengash o'tkazildi. Bu yerda Barselona o'yinlarida MDH birlashgan jamoa tarkibida qatnashishi, taqdirlash marosimida esa tegishli mustaqfil davlat madhiyasini ijro etish hamda bayrohini ko'tarish to'g'risida qaror chiqarildi. Bir vaqtning o'zida Olimpiya Xartiyasiga binoan ularni Xalqaro Olimpiya qo'mitasida tan olish bilan Milliy Olimpiya qo'mitalarini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport rivojlantirishdagi ulkan hissasi uchun

Olimpiya bilim asoslari

O.Nazirov 1983-yil iyunda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jismoniy tarbiya va sport xodimi”, 1992-yil avgustda esa “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi” unvonlariga sazovor bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo‘mitasining ikkinchi prezidenti – Sobirjon Sobitovich Ro‘ziyev. S.Ro‘ziyev O‘zbekiston va sobiq ittifoq terma jamoasi a‘zosi sifatida sharaflı sport yo‘lini bosib o‘tgan. Uni olimpiya dunyosi yaxshi taniydi, u ikki marta Monreal va Moskvadagi Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etgan. Moskvadagi Olimpiyadada rapira musobaqalarida jamoa hisobida kumush medal sovrindori bo‘lgan. U uch karra jahon chempioni (1972, 1974, 1976-yy.), ikki marta Butunjahon talabalar universiadasi chempioni (1974, 1977-yy.), ikki marta Djovannini va Martini Kubogi sohibi bo‘lgan. Shu yillarda u bir necha bor O‘zbekiston hamda sobiq ittifoq spartakiadalari, chempionatlari va Kuboklari chempioni bo‘lgan. 1980-yilda sportdagi yutuqlari uchun u “SSSRda xizmat ko‘rsatgan trener” unvoniga sazovor bo‘lgan. S.Ro‘ziyev 1994-yid 8-apreldan Milliy Olimpiya qo‘mitasi prezidenti bo‘ldi. S.Ro‘ziyev Milliy Olimpiya qo‘mitasiga rahbarlik qilgan yillarda mamlakatimiz Olimpiya harakati katta muvaffaqiyatlarga erishdi, Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi e‘tiboriga tushib, 1998-yilda Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining kumush ordeni bilan taqdirlandi. S.Ro‘ziyev O‘zbekiston Olimpiya shon-shuxrati muzeyi va Markaziy Osiyo o‘yinlarini tashkil etishda, O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi rahbarligi ostida Toshkentda Olimpiya sport turlari bo‘yicha mutaxassislar uchun xalqaro seminarlarni o‘tkazishda, sportchilarni yozgi va qishqi Olimpiya o‘yinlari hamda Osiyo o‘yinlariga tayyorlashda, Toshkentda birinchi yirik xalqaro forum – Osiyo davlatlari Milliy Olimpiya qo‘mitalari bosh kotiblarining kengashini (1999-yil) o‘tkazishda katta hizmatlar qildi.

Sportdagi zamonaviy yunalishlar tahlili quydagini aniqlashga imkon berdi:

- ushbu rivojlanish bosqichida sport jamiyatning ijtimoiy tashkilotiga aniq, faol integratsiyalashuvi, uning boshka ijtimoiy voqealar bilan uzviy bog‘liqligi ko‘zga tashlonmoqda;

- insonning hamma turdagi faoliyatiga, madaniyat, ta’limga sportning ta’siri kuchaymokda;

- shaxsni tarbiyalashda sportning ta’siri muhim darajada ortmoqda.

Yoshlarni sport faoliyatiga nafaqat jalb qilish, balki shug‘ullanuvchilarni sportning insonparvar g‘oyalarini, kadriyatlarini egallashga yunaltirish lozim, bunda, birinchi navbatda, sportchi o‘zida, o‘z Vatani sharaflini himoya qila oladigan, halol kurasha oladigan, qo‘pollik, ochko‘zlik, kuch ishlatish, yovuzlik, ya’ni ham sportni, ham shaxsni, ham jamiyatni yemiruvchi hodisalarga qarshilik ko‘rsata oladigan shaxsni, fuqorani tarbiyalashi lozim. Bunday vazifa olimpizm madaniyati kadriyatlarini egallash yo‘li orqali hal etiladi.

Olimpiya bilim asoslari

Olimpiya madaniyatining ijtimoiy qadriyatlari jamiyat tomonidan tarixiy bitimlar, ijtimoiy-ruhiy me'yorlar, sport harakatlari, Olimpizm, Olimpiya harakati, Olimpiya o'yinlari ko'rinishida yaratilgan.

Olimpiya madaniyatining tarixiy kadriyatlari sport tarixi, Olimpiya harakati to'g'risidagi bilimlar, sport, qadriyatlar, Olimpizm ma'nosi to'g'risidagi bilimlarning shakllanish tarixini o'z ichiga oladi.

Olimpiya madaniyatining dunyoqarashli kadriyatlari sport faoliyatiga falsafiy yondashish, sportning insonparvarlik asoslarini ishlab chiqish, Olimpiya Xartiyasi g'oyalari asosida olimpiya harakatini rivojlantirishda o'z aksini topadi.

Olimpiya madaniyatining muloqot qilish qadriyatlari sportni muloqot vositasi, xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sifatida yorqin namoyon kiladi, bu o'z navbatida, sport faoliyatining baynalmilalligini aks ettiradi.

Olimpiya madaniyati - bu Olimpiya xartiyasi g'oyalari, olimpizm falsafasiga mos bo'lgan, inson tomonidan to'plangan bilimlar, me'yorlar, kadriyatlar, xatti-harakat namunalarining yig'indisidir. Uning asosida inson turmush tarzi va shaxsning yashash usuli shakllanadi. Ushbu bilimlar ta'lim va tarbiya orqali beriladi. Jismoniy sifatlar va harakat malakalari hamda ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan an'anaviy jismoniy tarbiya orqali olimpiya ta'limi va tarbiyasi vazifalarini hal qilish juda murakkabdir. Buning uchun Yangi nazariy yondashishlarini ishlab chiqish zarur. Bunda pedagogik jarayonning insonparvarlik mohiyatiga katta e'tibor qaratish lozim.

Pedagogik jarayon mazmuni quyidagilarni o'z ichiga olishi shart:

- Olimpiya o'yinlari, Olimpiya harakati tarixi, Olimpizmning gumanistik g'oyalari va qadriyatlari to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish jarayoni;
- sportga bo'lgan qiziqish, sport mashg'ulotlariga bo'lgan talab, sportdagi natijaga, musobaqalarda g'alabaga erishishga bo'lgan intilishni shakllantirish jarayoni;
- bolalar, yoshlarni (aholini) turli yo'nalishdagi (sog'lomlashtirish, sport, dam olish) jismoniy tarbiya-sport faoliyatiga jalb qilish.

Olimpiya tarbiyasi jarayonining innovatsiyaligi. Jismoniy tarbiyadan farqli ravishda, uning butunligi hamda integrativligi, sport malakalari hamda ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida sport faoliyatining madaniy potensialini egallashning ustuvorligidan iborat.

Ma'naviy tarbiya masalalariga etarlicha e'tibor qaratmaslik sportchilarda manmanlik, ochko'zlik, molparastlik kabi salbiy sifatlarining shakllanishiga olib keladi.

Insonparvarlik g'oyalari asoslangan olimpiya tarbiyasi sportchilarda yuksak ma'naviy qadriyatlar, jamiyatda zarur bo'lgan ko'rsatmalar hamda sport faoliyati bilan shug'ullanish sabablarini tarbiyalashga yordam beradi.

Olimpiya bilim asoslari

Olimpiya tarbiyasida nafaqat tarixiy sanalar, faktlar, Olimpiya rekordlari raqamlarini eslab qolish orqali bilimlarini egallashga, balki yoshlarni sport faoliyatiga faol jalb qilish, ularda shaxsiy sport rekordlarini o'rnatishga bo'lgan intilishni rivojlantirish, birinchi navbatda, o'z ustidan g'alaba qozonishga o'rgatish zarur.

Olimpiya tarbiyasiga bunday yondashish yuksak madaniyat, tafakkurga ega bo'lgan, ya'ni har tomonlama rivojlangan shaxslar bilan sportchilar qatorini to'ldirishga imkon beradi.

Xalqaro Olimpiya Akademiyasi (XOA) 1961-yilda tashkil qilingan. Bu Olimpiya harakati g'oyalari, jismoniy tarbiya hamda sport nazariyasi va amaliyotini o'rganish hamda targ'ib qilish bo'yicha ixtisoslashgan muassasa bo'lib, Xalqaro Olimpiya qo'mitasi rahbarligi ostida harakat qiladi hamda Gretsiya (Yunoniston), Milliy Olimpiya qo'mitasi tomonidan moliyaviy ta'minlanadi. Xalqaro Olimpiya Akademiyasi manzili – Olimpiyadir. U jahon davlatlarining 74 ta Olimpiya akademiyalarini tan olgan. Uning faoliyati Xalqaro Olimpiya qo'mitasining maxsus komissiyasi tomonidan boshqarib boriladi va nazorat qilinadi.

Xalqaro Olimpiya Akademiyasi har yili haftalik sessiyalar tashkil qilib turadi. Ularning dasturidan falsafa va sportning mafkuraviy muammolari, olimpiya harakati tarixi, sport trenirovka va jismoniy tarbiyaning nazariy hamda seminarlar joy olgan. Ushbu sessiyalarga Milliy Olimpiya qo'mitasi yetakchi olimlar, trenerlar, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, talabalar, aspirantlar, sportchilarni – umumiy soni 4000 dan ziyod kishilarni yuboradi. 1987-yil 18-fevraldan boshlab sobiq Ittifoq Olimpiya akademiyasi, uning rahbarligida esa O'zbekiston Olimpiya akademiyasi tashkil qilingan.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng 1993-yil 18-aprelda O'zbekiston Respublikasi Olimpiya Akademiyasi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Olimpiya Akademiyasi prezidenti prof. A.Hamroqulov va uning ijroiylar direktori dots. B.Radjabov tarkibidagi delegatsiya 1994-yilda Olimpiyada bo'lib o'tgan Xalqaro Olimpiya Akademiyasining sessiyasida ishtirok etdi. O'zbekiston Respublikasi Olimpiya Akademiyasining 12 kishidan iborat ijroiylar qo'mitasi tarkibiga yetakchi olimlar, o'qituvchilar, trenerlar va Olimpiya harakati arboblari kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Olimpiya Akademiyasi ustavda aytilishicha, O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasi rahbarligi ostida harakat qiladigan ko'ngilli jamoat tashkiloti hisoblanadi. Hozirda Respublika Olimpiya Akademiyasiga O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti rektori rahbarlik qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Olimpiya Akademiyasi maqsadlari Olimpizm, Olimpiya harakti va Olimpiya o'yinlarining insonparvar qadriyatlari tamoyillari va

Olimpiya bilim asoslari

g'oyalari o'rganish, tarqatish, ommalashtirish hamda keyinchalik rivojlantirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Olimpiyaning dolzarb vazifasi bo'lib mamlakatimiz aholisi olimpiya ta'limotining tashkiliy va ilmiy-usuliy asoslarini yaratish, mintaqaviy Olimpiya akademiyalari bilan aloqalar o'rnatish hisoblanadi.

Bugungi kunda Xalqaro Olimpiya harakati sport jarayonining asosini tashkil etadi. Ushbu ijtimoiy fenomenni uchta tushuncha **“Olimpizm”**, **“Olimpiya harakati”**, **“Olimpiya o'yinlari”** tavsiflaydi. Mazkur tushunchalar yig'indisi, Olimpiya harakatining va ularning tashkiliy shakllaridan ajralib turadigan xususiyatlarini aks ettiradi. Bu harakat (Olimpizm) alohida ma'naviy asosga ega.

Olimpiya Xartiyasida Olimpizmga shunday ta'rif beriladi: “Olimpizm-bu tana, iroda va ong qadr-qimmatini muvozanatlashgan bir butunlikka birlashtiruvchi hayot falsafasidir. Sportni madaniyat va ta'limot bilan birlashtiruvchi Olimpizm say harakatdan quvonish, yaxshi namuna hamda asosiy umumiy axloqiy tamoyillarni hurmat qilishning tarbiyaviy qiymatiga asoslangan turmush tarzini yaratishga intiladi”. Aytilganlardan qo'rinib turibdiki, Olimpizmning ijtimoiy ahamiyati umuminsoniy qadriyatlar va ideallar bilan bog'lik. Bunday qadriyatlardan quyidagilarini ta'kidlab utish mumkin:

- birinchidan, Olimpizm – bu alohida, insoniyat tomonidan hosil qilingan yuksak axloqiy kadriyatlarga ma'naviy auradir;

- ikkinchidan, Olimpizm – bu jamiyatning uziga xos holatidir, bunda agressiya, urush harakatlarini olib borish ahloqsizlik hisoblanadi. BMT Bosh assambleyasining 50-sessiyasi X.A.Samaranchning “Sport va Olimpiya g'oyalari tufayli yaxshi hamda yanada mustahkam tinchlik o'rnatish uchun” mavzusidagi ma'ruzasi buyicha rezolyutsiya qabul qildi. Unda jahon hamjamiyatini Olimpiya o'yinlari davrida“ olimpiya tinchligini” o'rnatishga chaqirdi;

- uchinchidan, Olimpizm – bu sport, san'at, arxitektura, madaniyat, fan va texnikaning uziga xos uyg'unlashuvdir. Olimpiyadalar moddiy va ma'naviy madaniyatning turli tomonlarini rivojlantirish katalizator buldi. Bunday uyg'unliksiz Olimpiya o'yinlari uzining bu darajada maftunkorligiga ega bula olmas edi;

- to'rtinchidan, Olimpizm – bu turli davlatlar sportchilarining yagona ahil oilaga birlashishidir. Bu o'zaro yordam, birdamlik, halollikka asoslangan dustona munosobatlarni rivojlantirishdir. Bu har qanday diskriminatsiyaning yuklidir;

- beshinchidan, Olimpizm – nafakat jismoniy sifatlarni, balki tana va ruh uyg'unligini tarbiyalashga karatilgan ta'limdir. Bu shuningdek, sportchilarda botirlik, or-nomus, qadr-qimmatni tarbiyalashdir.

Olimpizm – sport harakatining ma'naviy asosi bo'lib, unda gumanistik

Olimpiya bilim asoslari

(insonparvar) g'oyalar yotadi (kishilarning yaxshi niyatlari, tinchlik, hamkorlikka intilish). Olimpizmning mazmun-mohiyati insonga, shaxsga, jamiyatga hizmat qilishdan iborat.

O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi prezidentlari



O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining
birinchi prezidenti ***Nazirov Obid Nazirovich***
(1992-1994)



O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining
ikkinchi prezidenti ***Ro'ziyev Sobirjon
Sobitovich***
(1994-2003)



O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining
uchinchi prezidenti ***Nosirov Aziz Nosirovich***
(2003-2004)



O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining
to'rtinchi prezidenti ***Qurbanov Rustam
Javdatovich***
(2004-2009)



O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining
beshinchi prezidenti ***Babayev Malik
Qurbonaliyevich***
(2009-2012)



O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining
oltinchi prezidenti ***Usmanov Mirabror
Zufarovich***
(2012-2017)



O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining
yettinchi prezidenti ***Sultanov Alisher
Saidabbasovich***
(2017-2018)



O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining
sakkizinchi prezidenti ***Ahmadjonov Umid
Maxamatjonovich***
(2018-2019)



O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining
to'qqizinchi prezidenti ***Shaabduraxmanov
Rustam Mavzurovich***
(2019-2022)

3-rasm. O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi prezidentlari.

Olimpiya bilim asoslari

3.2. O'zbekiston sportchilarining Olimpiya va xalqaro sport o'yinlaridagi ishtiroki va yutuqlari.

XXV – BARSELONA – 1992 MEDALLAR JAMLANMASI

T/r	DAVLATLAR	OLTIN	KUMUSH	BRONZA	JAMI
1.	 SSSR	45	38	29	112
2.	 AQSH	37	34	37	108
3.	 Germaniya	33	21	28	82
4.	 Xitoy	16	22	16	54
5.	 Kuba	14	6	11	31
6.	 Ispaniya	13	7	2	22
7.	 Janubiy Koreya	12	5	12	29
8.	 Vengriya	11	12	7	30
9.	 Fransiya	8	5	16	29
10.	 Avstraliya	7	9	11	27

Oksana Chusovitina (**sport gimnastika**) — Olimpiya o'yinlarida oltin medali;
Rozaliya Galiyeva (**sport gimnastika**) — Olimpiya o'yinlarida oltin medali;
Mariya Shmonina (**yengil atletika**) — Olimpiya o'yinlarida oltin medali;
Arsen Fadzayev (**kurash**) — Olimpiya o'yinlarida oltin medali;
Sergey Sirsov (**og'ir atletika**) — Olimpiya o'yinlarida kumush medali;
Anatoliy Asrabayev (**o'q otish**) — Olimpiya o'yinlarida kumush medali;
Valeriy Zaxarevich (**qilichbozlik**) — Olimpiya o'yinlarida bronza medali;



Olimpiya bilim asoslari



OKSANA CHUSOVITINA

Oksana Chusovitina sakkiz bor (1992, 1996, 2000, 2004, 2008, 2012, 2016, 2020) yozgi Olimpiadada ishtirok etgan holda Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan. Sportchi SSSR, Germaniya (2006–2012) nomidan Olimpiada o‘yinlarida ishtirok etgan, ayni vaqtda esa O‘zbekiston sharafini himoya qilmoqda. Chusovitina — 1992-yili jamoaviy bahsda Olimpiya chempioni, uch karra jahon chempioni, Yevropa chempioni, Osiyo o‘yinlari chempioni bo‘lgan. U tayanib sakrashga ixtisoslashgan.

XXVI – ATLANTA – 1996 MEDALLAR JAMLANMASI

T/r	DAVLATLAR	OLTIN	KUMUSH	BRONZA	JAMI
1.	AQSH	44	32	25	101
2.	Rossiya	26	21	16	63
3.	Germaniya	20	18	27	65
4.	Xitoy	16	22	12	50
5.	Fransiya	15	7	15	37
6.	Italiya	13	10	12	35
7.	Avstraliya	9	9	23	41
8.	Kuba	9	8	8	25
9.	Ukraina	9	2	12	23
10.	Janubiy Koreya	7	15	5	27
58.	Uzbekistan	0	1	1	2

Armen Bagdasarov (dzyudo) — Olimpiya o‘yinlarida kumush medali;

Karim To‘laganov (boks) — Olimpiya o‘yinlarida bronza medali;



OLIMPIADA RAMZI



OLIMPIADA MEDALI

XXVII – SIDNEY – 2000 MEDALLAR JAMLANMASI

T/r	DAVLATLAR	OLTIN	KUMUSH	BRONZA	JAMI
1.	 AQSH	37	24	32	93
2.	 Rossiya	32	28	29	89
3.	 Xitoy	28	16	14	58
4.	 Avstraliya	16	25	17	58
5.	 Germaniya	13	17	26	56
6.	 Fransiya	13	14	11	38
7.	 Italiya	13	8	13	34
8.	 Niderlandiya	12	9	4	25
9.	 Kuba	11	11	7	29
10.	 Velikobritaniya	11	10	7	28
41.	 Uzbekistan	1	1	2	4

Muhammadqodir Abdullayev (boks) — Olimpiya o‘yinlarida oltin medali;

Artur Taymazov (erkin kurash) — Olimpiya o‘yinlarida kumush medali;

Rustam Saidov (boks) — Olimpiya o‘yinlarida bronza medali;


Sergey Mixaylov (boks) — Olimpiya o‘yinlarida bronza medali;



OLIMPIADA RAMZI



OLIMPIADA MEDALI



MUHAMMADQODIR ABDULLAYEV

Muhammadqodir Abdullayev boks bo'yicha Osiyo va jahon chempioni, Osiyo va Olimpiya o'yinlari g'olibi. 1999 va 2000-yillarda mamlakatimizda "Yilning eng yaxshi sportchisi" deb topilgan. Muhammadqodir Abdullayev 1995-yili Toshkentda o'tkazilgan Markaziy Osiyo o'yinlarida g'olib chiqdi, Osiyo chempionatida ikkinchi o'rinni egalladi, 1996-yili esa Atlantada o'tadigan Olimpiya o'yinlariga yo'llanma oldi. U 1997-yili Malayziya poytaxti Kuala-Lumpurda Osiyo chempioni bo'lgan. 1998-yili Xitoyning Chong-Ging shahridan jahon kubogi bilan qaytdi, Bangkokda o'tkazilgan XIII Osiyo o'yinlarida esa oltin medalga sazovor bo'ldi. 1999-yili AQShning Xyuston shahrida jahon chempioni degan yuksak unvonga musharraf bo'ldi. Toshkentda o'tgan Osiyo chempionatida g'olib chiqib, Sidney Olimpiadasi yo'llanmasini ko'lga kiritgan. Sidney Olimpiadasida Muhammadqodir janglarda raqiblari ustidan g'alaba qozongan va yozgi Olimpiya o'yinlarining birinchi chempioni sifatida O'zbekiston sport tarixidan joy olgan.

XXVIII – AFINA – 2004 MEDALLAR JAMLANMASI

T/r	DAVLATLAR	OLTIN	KUMUSH	BRONZA	JAMI
1.	AQSH	36	39	26	101
2.	Xitoy	32	17	14	63
3.	Rossiya	28	26	36	90
4.	Avstraliya	17	16	17	50
5.	Yaponiya	16	9	12	37
6.	Germaniya	13	16	20	49
7.	Fransiya	11	9	13	33
8.	Italiya	10	11	11	32
9.	Janubiy Koreya	9	12	9	30
10.	Velikobritaniya	9	9	12	30
34.	Uzbekistan	2	1	2	5

Artur Taymazov (erkin kurash) — Olimpiya o'yinlarida oltin medali;
Aleksandr Doktorishvili (yunon-rum) — Olimpiya o'yinlarida oltin medali;
Magomed Ibragimov (erkin kurash) — Olimpiya o'yinlarida kumush medali;
Baxodirjon Sultonov (boks) — Olimpiya o'yinlarida bronza medali;
O'tkirbek Haydarov (boks) — Olimpiya o'yinlarida bronza medali;



OLIMPIADA RAMZI



OLIMPIADA MEDALI



ARTUR TAYMAZOV

Artur Taymazov kelib chiqishi osetin bo'lgan O'zbekistonlik erkin kurashchi. U uch karra Olimpiada chempioni (2004, 2008 va 2012-yillar), Sidney-2000 Olimpiadasi kumush medali sovrindori, ikki karra jahon chempioni, ikki karra Osiyo chempioni, uch karra Osiyo o'yinlari g'olibidir. Artur Taymazov sportning erkin kurash turi bo'yicha O'zbekiston sharafigini xalqaro arenalarda munosib himoya qilgan sportchilardan biri. O'zbekiston Olimpiya tarixida qo'lga kiritilgan 6 ta oltin medaldan 3 tasining egasi. 2000-yil Avstraliyaning Sidney shahridagi Olimpiada o'yinlarida 2-o'rin, 2004-yil Gretsiyaning Afina shahrida, 2008-yil Xitoyning Pekin shahridagi Olimpiada o'yinlarida 1-o'rinni egallab, O'zbekiston tarixida birinchi marta ikki karra olimpiada g'olibi degan nomni qo'lga kiritgan. 2012-yil Angliyaning London shahrida o'tkazilgan yozgi Olimpiya o'yinlarida ham 1-o'rinni egallagan.



ALEKSANDR DOKTURISHVILI

Artur Dokturishvili kattalar o‘rtasidagi musobaqalarda qatnashishni 2000-yilda boshlagan va ilk urinishda Yevropa chempioni unvoniga sazovor bo‘lgan. 2001-yildan O‘zbekiston terma jamoasi tarkibida gilamga chiqqa boshlagan. 2003-yili Osiyo Kubogi sohibiga aylangan. 2004-yili Osiyo chempioniga aylangan, olimpiada arafasidagi saralash musobaqasida ikkinchi o‘rinni egallagan. Gretsiya poytaxti Afinada o‘tgan Olimpiada o‘yinlarida yunon-rum kurashi bo‘yicha musobaqada -74 kg vazn toifasida gilamga chiqqan. Ishtirokchilar avval guruhlarda davra tizimida bellashishgan. G‘oliblar bevosita yarim final yo‘llanmasiga ega bo‘lgan. Dokturishvili guruhda vengriyalik Tamash Berjich, gretsiyalik Aleksios Kolitsopulos va ozarbayjonlik Vugar Aslanov ustidan ishonchli g‘alabaga erishgan. Yarim finalda amaldagi olimpiada chempioni rossiyalik Varteres Samurgashevni mag‘lubiyatga uchratgan. Nihoyat, finalda fin sportchisi - avvalgi olimpiada o‘yinlarining kumush medali sohibi Marko Yuli-Xannukselani yenggan o‘zbek sportchisi Afinadagi olimpiadaning oltin medali egasiga aylangan.

XXIX – PEKIN – 2008 MEDALLAR JAMLANMASI

T/r	DAVLATLAR	OLTIN	KUMUSH	BRONZA	JAMI
1.	Xitoy	51	21	28	100
2.	AQSH	36	38	36	110
3.	Rossiya	23	21	29	73
4.	Velikobritaniya	19	13	15	47
5.	Germaniya	16	10	15	41
6.	Avstraliya	14	15	17	46
7.	Janubiy Koreya	13	10	9	32
8.	Yaponiya	9	6	10	25
9.	Italiya	8	9	10	27
10.	Fransiya	7	16	18	41
40.	Uzbekistan	1	2	3	6

Olimpiya bilim asoslari

Artur Taymazov (erkin kurash) — Olimpiya o‘yinlarida oltin medali;
Abdullo Tangriyev (dzyudo) — Olimpiya o‘yinlarida kumush medali;
Soslan Tigiyeu (erkin kurash) — Olimpiya o‘yinlarida kumush medali;
Rishod Sobirov (dzyudo) — Olimpiya o‘yinlarida bronza medallari;
Anton Fokin (sport gimnastikasi) — Olimpiya o‘yinlarida bronza medali;
Yekaterina Xilko (batutda sakrash) — Olimpiya o‘yinlarida bronza medali;



OLIMPIADA MEDALI



ARTUR TAYMAZOV

Artur Taymazov kelib chiqishi osetin bo‘lgan O‘zbekistonlik erkin kurashchi. 2008-yil Xitoyning Pekin shahridagi Olimpiada o‘yinlarida 1-o‘rinni egallab, O‘zbekiston tarixida birinchi marta ikki karra Olimpiada g‘olibi degan nomni qo‘lga kiritgan.

XXX – LONDON – 2012 MEDALLAR JAMLANMASI

T/r	DAVLATLAR	OLTIN	KUMUSH	BRONZA	JAMI
1.	AQSH	46	28	29	103
2.	Xitoy	38	30	21	89
3.	Velikobritaniya	29	17	19	65
4.	Rossiya	22	24	33	79
5.	Janibiy Koreya	13	8	7	28
6.	Germaniya	11	19	14	44
7.	Fransiya	11	11	13	35
8.	Avstraliya	8	15	12	35

Olimpiya bilim asoslari

9.	 Italiya	8	9	11	28
10.	 Vengriya	8	4	6	18
47.	 Uzbekistan	1	0	2	3
Artur Taymazov (erkin kurash) — Olimpiya o‘yinlarida oltin medali; Rishod Sobirov (dzyudo) — Olimpiya o‘yinlarida bronza medali; Abbos Atoyev (boks) — Olimpiya o‘yinlarida bronza medali; Soslan Tigiyeu (erkin kurash) — Olimpiya o‘yinlarida bronza medali;					



OLIMPIADA RAMZI



OLIMPIADA MEDALI



ARTUR TAYMAZOV

*Artur Taymazov kelib chiqishi osetin bo‘lgan O‘zbekistonlik erkin kurashchi.
 2012-yil Angliyaning London shahrida o‘tkazilgan yozgi Olimpiya o‘yinlarida
 1-o‘rinni egallab, O‘zbekiston tarixida birinchi marta uch karra Olimpiada g‘olibi
 degan nomni qo‘lga kiritdi.*

XXXI – RIO-DE-JANEYRO – 2016 MEDALLAR JAMLANMASI

T/r	DAVLATLAR	OLTIN	KUMUSH	BRONZA	JAMI
1.	 AQSH	46	37	38	121
2.	 Velikobritaniya	27	23	17	67
3.	 Xitoy	26	18	26	70
4.	 Rossiya	19	18	19	56
5.	 Germaniya	17	10	15	42
6.	 Yaponiya	12	8	21	41

Olimpiya bilim asoslari

7.	 Fransiya	10	18	14	42
8.	 Janubiy Koreya	9	3	9	21
9.	 Italiya	8	12	8	28
10.	 Avstraliya	8	11	10	29
21.	 Uzbekistan	4	2	7	13


Ruslan Nurudinov (og'ir atletika) — Olimpiya o'yinlarida oltin medali;
Hasanboy Do'smatov (boks) — Olimpiya o'yinlarida oltin medali;
Shahobiddin Zoirov (boks) — Olimpiya o'yinlarida oltin medali;
Fazliddin G'oibnazarov (boks) — Olimpiya o'yinlarida oltin medali;
Shaxram G'iyosov (boks) — Olimpiya o'yinlarida kumush medali;
Bektemir Meliqo'ziyev (boks) — Olimpiya o'yinlarida kumush medali;
Rustam To'laganov (boks) — Olimpiya o'yinlarida bronza medali;
Murodjon Ahmadaliyev (boks) — Olimpiya o'yinlarida bronza medali;
Diyorbek O'rozboyev (dzyudo) — Olimpiya o'yinlarida bronza medali;
Rishod Sobirov (dzyudo) — Olimpiya o'yinlarida bronza medallari;
Elmurat Tasmuradov (yunon-rum kurashi) — Olimpiya o'yinlarida bronza medali;
Magomed Ibragimov (erkin kurash) — Olimpiya o'yinlarida bronza medali;
Ixtiyor Navro'zov (erkin kurash) — Olimpiya o'yinlarida bronza medali;



OLIMPIADA RAMZI



OLIMPIADA MEDALI



HASANBOY DO'SMATOV

Hasanboy Do'smatov bokschiilik faoliyatini 11 yoshida, Andijondagi boks maktabida boshlagan. U 2011-yilda yoshlar o'rtasidagi mamlakat chempionida oltin medalni qo'lga kiritadi va kattalarning O'zbekiston boks terma jamoasi a'zosiga aylanadi. 2013-yilda Qozon shahrida bo'lib o'tgan yozgi Universiadada g'olib chiqadi. O'sha turnirda u Ozarbayjon, Tojikiston, Mo'g'uliston va Janubiy

Olimpiya bilim asoslari

Koreyadan tashrif buyurgan kuchli sportchilarni mag'lubiyatga uchrata olgandi. Do'smatov 2016-yilgi Rio Olimpiadasi oldidan favoritlar qatorida e'tirof etilgan. U Braziliyadagi janglarida final yo'lida deyarli barcha raqiblarini qiyinchiliksiz mag'lub etgan. Hal qiluvchi jang esa kolumbiyalik Martinez Yuberjenga qarshi to'qnash kelgan Do'smatov Olimpiada chempionligini qo'lga kiritgan. 23 yoshli bokschi Rio-2016-yildagi boks turnirida ilk oltin medal egasiga aylangan. Do'smatov O'zbekiston tarixida Muhammadqodir Abdullayevdan keyin Olimpiada chempioniga aylangan ikkinchi bokschi hisoblanadi. Rio Olimpiadasi yakunlariga ko'ra Hasanboy Do'smatov turnirning eng yaxshi bokschisiga beriladigan Vel Barker sovrini sohibiga aylangan.



SHAHOBIDDIN ZOIROV

Shahobiddin Zoirov — o'zbek bokschisi. Olimpiya chempioni (2016-yil), jahon chempioni (2019-yil), Osiyo o'yinlarining kumush medali sovrindori (2014-yil), Osiyo chempioni (2021-yil), Osiyo chempionatining ikki karra kumush medali sohibi (2013, 2015-yillar). Bokschi 2016-yildagi Rio Olimpiada o'yinlarida 52 kilogramgacha vazn toifasida oltin medalni qo'lga kiritgan. Final bahsida Zoirov rossiyalik Misha Aloyanni mag'lubiyatga uchratib, Olimpiada shohsupasiga ko'tarilgan.



FAZLIDDIN G'OIBNAZAROV

Fazliddin G'oibnazarov — birinchi yarim o'rta vazn toifasida harakat qilayotgan o'zbekistonlik professional bokschi. Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan 2016-yilgi Olimpiya o'yinlari chempioni, 2015-yilgi Jahon va Osiyo chempionatlarining

Olimpiya bilim asoslari

kumush medali sovrindori, havaskorlar o'rtasidagi boks bo'yicha bir qator milliy va xalqaro turnirlar g'olibi va sovrindori.



RUSLAN NURUDINOV

Ruslan Nurudinov o'zbekistonlik og'ir atletikachi. Xalqaro maydondagi dastlabki g'alabasini 2009-yili Birlashgan Arab Amirliklarida o'tgan o'smirlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida qo'lga kiritgan va oltin medalga sazovor bo'lgan. Ruslan Nurudinov 2011-yili Fransiyadagi jahon chempionatida shtangani siltab ko'tarishda kumush medalni qo'lga kiritgan. 2012-yili Janubiy Koreyada o'tgan Osiyo chempionatida g'olib chiqdi va London Olimpiadasida kuchli to'rtlikdan joy oldi. Keyinroq og'ir atletikachi Ruslan Nuriddinovning tekshiruvdan o'tkazilgan 2012-yilgi doping namunasi ijobiy natija bergan. Xalqaro og'ir atletika federatsiyasi uni vaqtincha sportdan chetlatib, Olimpiadada erishgan natijalari, jumladan ballari bekor qilinib, medal va sovrinlari musodara etilishi haqida ma'lum qilingan edi.

2013-yil og'ir atletikachi uchun har tomonlama muvaffaqiyatli bo'ldi. Dastlab mamlakat chempionatida g'alaba qozongan Ruslan Osiyo chempionatida ham uchta oltin medalni qo'lga kiritdi. Iyul oyida Jahon univesiadasiida ikki marotaba rekord o'rnatib, chempion bo'lgan. 2016-yilgi olimpiadada og'ir atletikachi Ruslan Nurudinov siltab ko'tarishda Olimpiya rekordini yangilab, Riodagi o'yinlarda oltin medalni qo'lga kiritgan.

XXXII – TOKIO – 2020 MEDALLAR JAMLANMASI

T/r	DAVLATLAR	OLTIN	KUMUSH	BRONZA	JAMI
1.	AQSH	39	41	33	113
2.	Xitoy	38	32	18	88
3.	Yaponiya	27	14	17	58
4.	Velikobritaniya	22	21	22	65
5.	Rossiya	20	28	23	71
6.	Avstraliya	17	7	22	46
7.	Niderlandiya	10	12	14	36
8.	Fransiya	10	12	11	33
9.	Germaniya	10	11	16	37

Olimpiya bilim asoslari

10.	 Italiya	10	10	20	40
32.	 Uzbekistan	3	0	2	5

Ulug'bek Rashitov (taekvondo wtf) — Olimpiya o'yinlarida oltin medali;
Akbar Jo'rayev (og'ir atletika) — Olimpiya o'yinlarida oltin medali;
Bahodir Jalolov (boks) — Olimpiya o'yinlarida oltin medali;
Davlat Bobonov (dzyudo) — Olimpiya o'yinlarida bronza medali;
Bekzod Abdurahmonov (erkin kurash) — Olimpiya o'yinlarida bronza medali;



OLIMPIADA RAMZI



OLIMPIADA MEDALI



**MUSTAQIL O'ZBEKISTON TARIXIDAGI ENG YOSH OLIMPIADA
CHEMPIONI ULUG'BEK RASHITOV**



**TOKIO-2020 OLIMPIYA O'YINLARIDA HAR BIR SPORTCHIMIZNING
ISHTIROKI HAQIDA JUDA KO'P TO'XTALIB O'TISH MUMKIN.
REKORDCHIMIZ AKBAR JO'RAYEV**

Olimpiya bilim asoslari



BAYROQDORIMIZ, ISMI JISMIGA MOS BAHODIR JALOLOV

ASSALOM PARIJ-2024



4-rasm. XXXIII – yozgi Olimpiada o‘yinlari Fransiya poytaxti (Parij)da bo‘lib o‘tadi.

OLTIN, KUMUSH VA BRONZA MEDALLARNI QO‘LGA KIRITGAN O‘ZBEKISTONLIK SPORTCHILAR

O‘yin	Yil	Shahar	Davlat soni	Sportchi soni	Medallari soni			O‘rin
					Ol tin	K u m us h	Br on za	
XXVI	1996	Atlanta	197	76	–	1	1	58
XXVII	2000	Sidney	199	77	1	1	2	41
XXVIII	2004	Afina	201	70	2	1	2	34
XXIX	2008	Pekin	204	59	1	2	3	40
XXX	2012	London	204	54	1	–	2	47
XXXI	2016	Rio-de-Janeyro	207	70	4	2	7	21

Olimpiya bilim asoslari

XXXII	2020	Tokio	206	71	3	–	2	32
XXXIII	2024	Parij						

Oksana Chusovitina (**sport gimnastika**) — Barselona-1992 Olimpiya o‘yinlarida oltin medali;

Rozaliya Galiyeva (**sport gimnastika**) — Barselona-1992 Olimpiya o‘yinlarida oltin medali;

Mariya Shmonina (**yengil atletika**) — Barselona-1992 Olimpiya o‘yinlarida oltin medali;

Arsen Fadzayev (**kurash**) — Barselona-1992 Olimpiya o‘yinlarida oltin medali;

Sergey Sirsov (**og‘ir atletika**) — Barselona-1992 Olimpiya o‘yinlarida kumush medali;

Anatoliy Asrabayev (**o‘q otish**) — Barselona-1992 Olimpiya o‘yinlarida kumush medali;

Valeriy Zaxarevich (**qilichbozlik**) — Barselona-1992 Olimpiya o‘yinlarida bronza medali;

Lina Cheryazova (**fristayl**) — Lillehammer-1994 Olimpiya o‘yinlarida oltin medali;

Armen Bagdasarov (dzyudo) — Atlanta-1996 Olimpiya o‘yinlarida kumush medali;

Karim To‘laganov (boks) — Atlanta-1996 Olimpiya o‘yinlarida bronza medali;

Muhammadqodir Abdullayev (boks) — Sidney-2000 Olimpiya o‘yinlarida oltin medali;

Artur Taymazov (erkin kurash) — Sidney-2000 Olimpiya o‘yinlarida kumush medali;

Rustam Saidov (boks) — Sidney-2000 Olimpiya o‘yinlarida bronza medali;

Sergey Mixaylov (boks) — Sidney-2000 Olimpiya o‘yinlarida bronza medali;

Artur Taymazov (erkin kurash) — Afina-2004 Olimpiya o‘yinlarida oltin medali;

Aleksandr Dokturishvili (yunon-rum) — Afina-2004 Olimpiya o‘yinlarida oltin medali;

Magomed Ibragimov (erkin kurash) — Afina-2004 Olimpiya o‘yinlarida kumush medali;

Baxodirjon Sultonov (boks) — Afina-2004 Olimpiya o‘yinlarida bronza medali;

O‘tkirbek Haydarov (boks) — Afina-2004 Olimpiya o‘yinlarida bronza medali;

Artur Taymazov (erkin kurash) — Pekin-2008 Olimpiya o‘yinlarida oltin medali;

Abdullo Tangriyev (dzyudo) — Pekin-2008 Olimpiya o‘yinlarida kumush medali;

Soslan Tigiyev (erkin kurash) — Pekin-2008 Olimpiya o‘yinlarida kumush medali;

Olimpiya bilim asoslari

Rishod Sobirov (dzyudo) — Pekin-2008 Olimpiya o'yinlarida bronza medallari;

Anton Fokin (sport gimnastikasi) — Pekin-2008 Olimpiya o'yinlarida bronza medali;

Yekaterina Xilko (batutda sakrash) — Pekin-2008 Olimpiya o'yinlarida bronza medali;

Artur Taymazov (erkin kurash) — London-2012 Olimpiya o'yinlarida oltin medali;

Rishod Sobirov (dzyudo) — London-2012 Olimpiya o'yinlarida bronza medali;

Abbos Atoyev (boks) — London-2012 Olimpiya o'yinlarida bronza medali;

Soslan Tigiyev (erkin kurash) — London-2012 Olimpiya o'yinlarida bronza medali;

Ruslan Nurudinov (og'ir atletika) — Rio-2016 Olimpiya o'yinlarida oltin medali;

Hasanboy Do'smatov (boks) — Rio-2016 Olimpiya o'yinlarida oltin medali;

Shahobiddin Zoirov (boks) — Rio-2016 Olimpiya o'yinlarida oltin medali;

Fazliddin G'oibnazarov (boks) — Rio-2016 Olimpiya o'yinlarida oltin medali;

Shaxram G'iyosov (boks) — Rio-2016 Olimpiya o'yinlarida kumush medali;

Bektemir Meliqo'ziyev (boks) — Rio-2016 Olimpiya o'yinlarida kumush medali;

Rustam To'laganov (boks) — Rio-2016 Olimpiya o'yinlarida bronza medali;

Murodjon Ahmadaliyev (boks) — Rio-2016 Olimpiya o'yinlarida bronza medali;

Diyorbek O'rozboyev (dzyudo) — Rio-2016 Olimpiya o'yinlarida bronza medali;

Rishod Sobirov (dzyudo) — Rio-2016 Olimpiya o'yinlarida bronza medallari;

Elmurat Tasmuradov (yunon-rum kurashi) — Rio-2016 Olimpiya o'yinlarida bronza medali;

Magomed Ibragimov (erkin kurash) — Rio-2016 Olimpiya o'yinlarida bronza medali;

Ixtiyor Navro'zov (erkin kurash) — Rio-2016 Olimpiya o'yinlarida bronza medali;

Ulug'bek Rashitov (taekvondo wtf) — Tokio-2020 Olimpiya o'yinlarida oltin medali;

Akbar Jo'rayev (og'ir atletika) — Tokio-2020 Olimpiya o'yinlarida oltin medali;

Bahodir Jalolov (boks) — Tokio-2020 Olimpiya o'yinlarida oltin medali;

Davlat Bobonov (dzyudo) — Tokio-2020 Olimpiya o'yinlarida bronza medali;

Bekzod Abdurahmonov (erkin kurash) — Tokio-2020 Olimpiya o'yinlarida bronza medali;

3.3. O‘zbekiston Olimpiya va Paralimpiya shon-shuxrati muzeyi.

XALQARO OLIMPIYA QO‘MITASI (XOQ) TA‘SIS ETGAN MUZEYLAR

T/r	Davlat	Tashkil etilgan yili
1	Shveysariya (Lozanna)	1993-yil
2	O‘zbekiston (Toshkent)	1996-yil
3	Kanada (Toronto)	1997-yil, 2004-yil
4	Gretsiya (Afina)	1998-yil, 2004-yil
5	Yaponiya (Nogano)	1998-yil

Olimpiya shon-shuhrati muzeyi - Mamlakatimiz sportining ko‘zgusi hisoblangan Olimpiya shon-shuhrati muzeyi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 14-avgustdagi 284-sonli qarori bilan tashkil etilgan.

Muzeyning tantanali ochilish marosimi 1996-yil 1-sentyabrda o‘tkazilib, unda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov va Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining o‘sha paytdagi prezidenti Xuan Antonio Samaranch ishtirok etishgan.



5-rasm. O‘zbekiston Olimpiya shon-shuhrati muzeyi binosi.

O‘zbekiston Olimpiya shon-shuhrati muzeyi Olimpizm qadriyatlarini hamda “*halol o‘yin*” tamoyillarini targ‘ib qilishda, O‘zbekiston sportchilarini olamshumul g‘alabalari va mamlakatimizda Olimpiya harakatini rivojlantirish tarixi to‘g‘risida keng jamoatchilikni bohabar qilishda muhim o‘rin egallaydi. Shu maqsadda muzeyda Vatanimiz sportchilarining Olimpiya o‘yinlari hamda xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan nufuzli musobaqalarda qo‘lga kiritgan g‘alabalarini o‘zida aks ettiruvchi turli mavzudagi ekspozitsiyalar va ko‘rgazmali tadbirlarni doimiy ravishda tashkil etiladi.

O‘zbekiston Olimpiya shon-shuhrati muzeyida 11000 dan ortiq eksponat o‘rin egallagan bo‘lib, shundan mingdan ortig‘i doimiy ekspozitsiyaga qo‘yilgan.

Olimpiya bilim asoslari

Muzeyda medallar, kuboklar, mayoqlar, pochta markalari, sport anjomlari va kiyim-kechaklari ko'p miqdorda ko'rgazmaga qo'yilgan.

Ular AQSH, Ispaniya, Shveysariya va boshqa xorijiy davlatlardan olib kelingan. Muzeyning 1-qavatida noyob eksponatlar joylashtirilgan. Prezident I. Karimovning muzeyga sovg'alari ham bor. Bular xalkaro sportni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun O'zbekiston Prezidentiga XOQ Prezidenti topshirgan Olimpiada oltin ordeni, Osiyo Olimpiada Kengashining Olimpiada oltin ordenidir. Shuningdek, bu yerda Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasining "Oltin marjoni", professional boks bo'yicha 16 karra jahon chempioni A. Grigoryannint chempionlik oltin kamari, gulchambari va medallari, olimpiada o'yinlari vaqtida tayyorlangan turli medallar va nishonlar bor. Muzeyning 2-qavatida Olimpiada o'yinlari o'tkazilgan yillar xronologik tarzda berilgan bo'lib, ularda ishtirok etgan o'zbekistonlik sportchilarning kiyimlari, asbob-anjomlari, suratlari, mukofotlari bilan tanishish mumkin. O'zbekiston mustaqilligi yillarida sportchilarimizning jahon, Yevropa birinchiliklari, Osiyo, Markaziy Osiyo o'yinlari, Toshkent va xorijiy mamlakatlarda o'tkazilayotgan turli xalqaro turnirlarda erishgan yutuqlari, qo'lga kiritgan sovrinlari muzey eksponatlarining asosini tashkil etadi. Amaldagi ekspozitsiyalar muntazam yangi eksponatlar bilan to'ldirib turiladi. Muzey vidiokassetasi tasmalariga eng qiziqarli musobaqalar tasviri yozilgan. Olimpiya shon-shuhrati muzeyi O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tarixiga oid hujjatlar fondi yaratilgan. Bu yerda muhim sport tadbirlari o'tkazilib turiladi.

Qo'shimcha ma'lumotlar

Yangi O'zbekistonda Olimpiya harakatini yanada rivojlantirish ishlari

Mamlakatda olib borilgan kuchli ijtimoiy siyosat aholi, ayniqsa yosh avlodni sog'lomlik resurslarni ko'tarishga qaratildi. Millatni sog'lig'i - bu yurtni boyligi ekanligi, uni ko'paytirish va asrash to'g'risida yangi ilmiy qarashlar ommaviy - sport sog'lomlashtirish ishlarini yanada rivojlantirishga asos bo'ldi.

Mamlakat aholisining barcha qatlamlarini sport harakatiga ommaviy ravishda jalb etish, ularni sog'lomlik kapitalini zamonaviy ilmiy-metodologik hamda innavatsion yondoshuvlar orqali oshirishga qaratilgan nazariy va amaliy ishlar, yurt darajasida ijobiy ijtimoiy o'zgarishlarga olib keldi.

Shu bilan birga, aholi ayniqsa o'quvchi-yoshlarni yillar davomida ommaviy ravishda sport xarakatiga jalb etishga, sog'lom turmush tarzini ularni kundagi hayot tarziga aylantirishga qaratilgan qarorlar va amaliy dasturlar qabul qilindi.

Mazkur hujjatlarda sohadagi mavjud kamchiliklar, avvalam bor, ommaviy sportni boshqaruv mexanizmlari to'liq ishlab chiqilmagani, mazkur masalaga javobgarlarni ommaviy sportni ijtimoiy - iqtisodiy ahamiyati va mohiyatiga to'liq etmasligi, ularni bilim malakasi va kasbiyligi etarli emasligi, funksional vazifalari takrorlanishi hamda resurs bazasini shakllantirish masalalari bo'yicha, turli darajadagi tashkilotlarning vakolatlari aniq emasligi bilan izohlanadi.

Olimpiya bilim asoslari

Bundan tashqari, bir-biriga bog‘lanmagan ommaviy sport-sog‘lomlashtirish kompleks musobaqalar va metodikalarni mavjudligiga qaramasdan, aholining juda kam qismi kundalik hayotida faol sport bilan shug‘ullanmoqda. Bunga sabab, mamlakatda muntazam ravishda aholining turli qatlamlarini sport harakatiga jalb etadigan samarali yahlit-bir butun tizimni mukammal boshqaruv asoslari ishlab chiqilmagani bo‘lmoqda, buning oqibatida aholining katta qismi, ayniqsa yoshlarni sport harakatiga bo‘lgan qiziqishi, ularni hayot tarziga aylanmayapti.

O‘zbekiston Prezidenti jismoniy tarbiya va sportni tizimli boshqarish – bu mazkur sohaning samarali harakatiga va mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqligini ko‘rsatib o‘tdi. Chunki, ommaviy sport nafaqat insonni jismoniy rivojlanishiga, balki uning ijtimoiy resurs salohiyatini mustahkamlashga, shuningdek madaniy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkillashtirishni oqilona shakli hisoblanmoqda.

Olimlarning fikri bo‘yicha, jismoniy tarbiya va sport, hususan ommaviy sport davlatning juda ko‘p muammolarini hal qilish uchun mo‘ljallangan, bular:

- iqtisodni ko‘tarish, jamiyatni birlashtirish;
- yoshlarni zararli odatlardan halos qilishga;
- kasalliklarni oldini olishga; o‘rtacha hayot davomiyligini va uning sifat darajasini oshirishga qaratilgan.

Bundan tashqari, ommaviy sport inson hayotini boshqa jihatlariga, ya‘ni: shahsni iqtisodiy va ijtimoiy mavqeyiga, kasbiy va mehnat faoliyatiga, ahloqiy va intellektual hususiyatlari tarkibiga, estetik ideallariga va ezgulik yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, ommaviy sport birinchi navbatda, millatni sog‘lomlashtirishga va ijtimoiy jarayonlarni muvozanatda ushlab turishga qaratilgan.

Bugungi kunda eng dolzarb hal qilinmagan masala – qanday qilib ommaviy ravishda aholini sport harakatiga jalb etish hamda qanday qilib aholini barcha qatlamlarini muntazam ravishda jismoniy harakatga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirish bo‘lmoqda.

Mazkur masala yuzasidagi adabiyotlar tahlili, ommaviy sport-sog‘lomlashtirish ishlarini rivojlantirish bilan bog‘liq metodologik va uslubiy izlanmalar ilmiy jihatdan etarli ishlanmaganligi, oliy sport mahorati muammolari tadqiqotlariga nisbatan sezirarli darajada ortda qolganligini ko‘rsatmoqda.

Yuqorida keltirilgan dalillar, mamlakat aholisini barcha qatlamlarini, ayniqsa o‘quvchi-yoshlarni ommaviy ravishda sport harakatiga uzluksiz jalb qiladigan, sog‘lom hayyot tarzini shakllantiradigan, sport harakatining rolini oshiradigan mukammal va samarali tizimni zarurligini tasdiqlaydi. Buning uchun barchaga o‘rnashib qolgan yondoshuv va amaliyotni qayta ko‘rib, zamonaviy konsepsiyani

Olimpiya bilim asoslari

va boshqaruv strategiyasini yangi tamoillar asosida ishlab chiqishni va amaliyotda joriy etish zarur bo'lmoqda.

Yangi konsepsiyaga asosan mamlakatda ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarni boshqarishdagi talablar kuydagicha bo'lishi: birinchidan - tizimli, ikkinchidan-kompleks, uchinchi - bir butunlikda, to'rtinchidan-uzluksiz, va beshinchidan-siklik ravishda bo'lishi va shu tarzda tamoillarda tizilmasini tuzish maqsadga muvofiq deb topildi.

Ushbu talablarga binoan ommaviy-sport boshqaruvi ko'p bosqichli, ya'ni tizimli ravishda shakllantirilganda bosqichma-bosqich tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarini aniqlash imkoni bo'ladi. Birinchi navbatda tizimlar darajalarida ommaviy sportni keng joriy etadigan, boshqaruv davlat strategiyasini va uning huquqiy xarakter asosini ishlab chiqishni hamda barcha qatlamdagi aholini umummillat darajasida harakatlanishga jalb etadigan yagona kompleks musobaqadan iborat bo'lishi juda muhim.

O'zbekistonda vaziyat biroz boshqacha kechdi. Mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatga binoan, sog'lomlik milliy boylik sifatida qabul qilindi, shuningdek, sog'lomlik mamlakat boyligi ekanligi va u ommaviy sport-sog'lomlashtirish musobaqalari orqali ko'paytirish yuzasidan nazariy va amaliy strategik reja belgilandi.

Shunga binoan, yurtda ommaviy sport yosh avlodni ijtimoiy resurslarini oshirish va to'plashda hamda aholini sog'lom hayot tarzini shakllantirishdagi asos sifatida ko'rildi.

Ilmiy adabiyotlarda jismoniy harakatlanish bir nechta darajada "ommaviy sport" hamda "sport hamma uchun" olib boriladi. Ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlari – bu maqsadli, izchil va doimiy jarayon bo'lib, murakkab tadqiqot ob'ekti sifatida tizimlashtirish va strukturalashtirishni talab etadi. Ushbu murakkab ishni, uning tarkibiy elementlarini va ular o'rtasidagi mavjud aloqaviy bog'larni to'liq hisobga olib tashkil etilmasa, kutilgan natijalarga erishib bo'lmaydi.

Mamlakatda joriy etilayotgan uzluksiz musobaqalar tizimining bosqich o'yinlariga - birinchi (ta'lim muassasa darajasi), ikkinchi (tuman darajasi), uchinchi (viloyat darajasi), to'rtinchi (respublika darajasi) tashkiliy va boshqaruv ishlariga ma'sul bo'lgan ta'lim va sport tashkilotchilari, faqat tartibga solingan to'rtinchi-respublika final bosqich bellashuvlarida tegishli o'rinlarni qo'lga kiritishga qaratmoqdalar.

Bunday yondoshuv oqibatida o'quv muassasa darajasida millionlab yoshlarni sporda uzluksiz shug'ullantiradigan - birinchi bosqich musobaqalari final o'yinlari oldidan, formal ravishda o'tkazilib kelinmoqda. Ma'sullarni, faqat to'rtinchi final bosqich musobaqalariga e'tibor berishlari evaziga, tizimni bosqichlariga yuklatilgan

Olimpiya bilim asoslari

metodologik talablarni buzilishi va vujudga kelayotgan disproporsiya hisobiga, ta'lim muassasasi ichidagi o'quvchilarni juda katta qismi sport xarakatiga jalb etilmay chetda qolib ketayapti.

Musobaqalar tizimini boshqaruv amaliyotidagi kamchiliklar tahlili, mamlakatda ommaviy sport muammolarini faqat kompleks ravishda, barcha boshqaruv organlarning o'zaro bog'liqligi va samarali hamkorligida, to'g'ri tizilma va metodologiya asosida to'liq amalga oshirilganda hal qilish mumkin. ekanligini ko'rsatmoqda.

Ko'p bo'g'inli milliy tizimni shakllantirishda, ommaviy sportni respublika, viloyat, tuman va muassasa darajasida ta'sir etadigan spetsifik boshqaruv ob'ekti sifatida bo'lishi kerak. Shunga binoan, ommaviy sportni tizimli ravishda tashkil qilish, birinchi navbatda ularni to'g'ri va izchil joylashtirish, shuningdek har bir avtonom davlat strukturasini bo'g'inlar sifatida, bir butunlikka birlashtirishni talab etadi.

Mamlakatda ushbu tamoyil asosida aholini barcha qatlamlarini sport harakatiga uzluksiz va izchillik bilan jalb qiladigan "Umum o'zbek Olimpiya sport harakati tizimi" ishlab chiqildi (sxema). Ko'p bosqichli, yahlit siklik tizim, beshta zanjirsimon bo'g'inlardan tashkil topib, muassasa, tuman, viloyat va respublika miqyosida o'quvchi yoshlarni ommaviy sport xarakatiga jalb qiladigan tashkiliy va boshqaruv mexanizmlardan iborat.

Belgilangan maqsadlarga ko'ra, tizim bo'g'inlarini ketma-ket harakatga keltirishda kuydagilarni inobatga olindi - ya'ni, har bir bo'g'inning bosqich musobaqalari uchun, ishlab chiqilgan metodologik talablarni bajarilishi majburdir, chunki undan keyingi bosqichni bajarilishi, aynan, birinchisiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

O'quvchi va yoshlarni juda katta qismini qamrab oladigan tizimni ikkinchi va uchinchi bo'g'inlaridan boshlash rejalashtirildi, chunki o'quv muassasalarida jismoniy tarbiya o'qituvchilari hamda sport murabbiylari va tegishli sport bazani mavjudligi, bundan tashqari million-million yoshlarni ijtimoiy foydali harakatga tezlik bilan jalb etish hamda harbiy xizmatga chaqiriladigan yoshlarni sog'lig'ini ko'tarish sabab bo'ldi.

1999-yilda tizimni uchinchi va ikkinchi bo'g'inlar bosqichlarini (to'rt bosqich) ketma-ketlik harakatlanish mehanizmlari to'liq ishlanmasdan, to'rtinchi-respublika final bosqich "Universiada" musobaqalarni o'tkazishga kirishildi.

Ushbu tartib asosida tizim o'yinlarini tezkorlik bilan xarakatga keltirilish, o'sha davrda ijtimoiy va mavkuraviy masalalarni hal qilishda katta rol o'ynadi. O'yinlar, yoshlarda vatan tuyg'usini shakllantirishda, ularni sportga bo'lgan qiziqishini oshirish, mamlakat viloyatlari va tumanlarida ijtimoiy infrastrukturani yaxshilashda vosita hamda ijtimoiy amartizator sifatida bo'ldi.

Olimpiya bilim asoslari

Tizimni innavatsion mexanizmi tarzida “sport hamma uchun” musobaqalari qo‘llanilib, o‘quvchilarni ommaviylikdan yuqori sport mahoratigacha piramidal tamoil asosida harakatga keltirildi. Mazkur musobaqalarni pedagogik jixatdan maqsadi - sport natijalarga erishish bo‘lmasdan, balki tashkiliy jihatdan o‘quvchilarni jismoniy faollikka jalb etishdan iborat bo‘ldi.

Musobaqalar mamlakatni barcha ta’lim muassasalarida o‘qiydigan millionlab o‘quvchilarni doimiy va izchil ravishda faol jismoniy harakatiga jalb etadigan instrument sifatida qo‘llanildi.

Kompleks musobaqalarni ijtimoiy ahamiyati bir nechta tomondan e’tiborlidir. Birinchidan, musobaqalar sport xarakatini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Ikkinchidan, sport musobaqalari ba’zi ijtimoiy vaziyatlarda samarali tarbiyaviy vosita bo‘ladi. Uchinchidan, musobaqalar, sport musobaqalarini boshqaruv ob’ektidir. Shuni hisobga olish kerakki, o‘quvchilarda shunchaki musobaqaga emas, balki musobaqalar tizimiga bo‘lgan qiziqish yuqoridir.

Shunga binoan, mamlakatda ta’lim muassasalari – maktab, litsey kolledj ommaviy - sport sog‘lomlashtirish harakatining asosiy fundamental bosqichi sifatida qabul qilinib, ta’lim muassasalarida o‘qiydigan millionlab o‘quvchilarni ommaviy sport harakatiga uzluksiz jalb qiladigan, yangi segmentli model tizilmasi taklif etildi.

Jahon ta’lim muassasalarida keng qo‘llanaliladigan ommaviy o‘yin turlari tajribasidan kelib chiqib, tashkiliy jixatdan tizim harakatini, ta’lim muassasalarida o‘qiydigan barcha o‘quvchilarni qamraydigan bo‘g‘inlardan boshlab, ularni ko‘p bosqichli “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” musobaqalar nomi bilan ajratildi.

Uzluksiz musobaqalar, tufayli mamlakatni viloyat va tuman markazlarida yuzlab sport inshootlari qurildi, mavjudlari qaytadan ta’mirlandi hamda ularni material texnik bazasi mustahkamlandi. Bulardan tashqari, sport mutahassislarning ishlari faollashtirildi, tarqoq o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan va aniq maqsadga qaratilmagan musobaqalar tartibga keltirildi, joylarda mavqei tushib ketgan suzish, engil atletika, voleybol, basketbol, gandbol va boshqa sport turlari rivoj topdi.

Yurt miqyosida o‘yin va siklik sport turlaridan musobaqalar tiklanib, super ligalar paydo bo‘ldi, ta’lim tizimida “Talaba”, “Barkamol avlod” va “Yoshlik” sport jamiyatlari tashkil etildi, mamlakat sport federatsiyalarini musobaqalarga rahbarlik qilish ma’suliyati oshirildi, bosh xakamlar va xakamlar xay’atlari shakllantirildi hamda Bolalar sportini rivojlantirishga qaratilgan jamg‘arma tuzildi.

O‘zbekistonda Olimpiya harakatini rivojlantirish asosida erishilgan natijalar:

1. O‘zbekistonda, jahon tajribasida ilk bor, ommaviy-sport sog‘lomlashtirish ishlarini tizimli bir butun, kompleks va siklik yondoshuv asosida harakatlantirish va uni boshqarish bilan bog‘liq metodologiya konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Olimpiya bilim asoslari

2. Mamlakat darajasida aholining barcha qatlamlarini ko'p bosqichli uzluksiz ommaviy - sport sog'lomlashtirish harakatiga jalb etadigan tizimni boshqaruv modeli shakllantirildi.

3. Ommaviy-sport sog'lomlashtirish jarayonida ishtirok etadigan davlat muassasalarni o'rni mazkur tizim bo'g'inlarida belgilandi hamda ularni izchillikdagi harakatlanish tamoillari va mexanizmlari ishlab chiqildi.

4. Tizimni ta'lim bo'g'inlarida ko'p bosqichli maktab o'quchilari uchun – "Umid nihollari", litsey va kolledj eshituvchilari uchun – "Barkamol avlod" va talabalar uchun "Universiada" modeli ishlab chiqildi, mazkur uzluksiz musobaqalar mamlakat yoshlarini ommaviy ravishda sport harakatiga va sog'lom hayot tarziga jalb etadigan instrument sifatida qo'llanildi.

5. Ta'lim muassasalarida o'quvchilarni sportga jalb etish va o'yin sport turlari orqali ommaviy ravishda harakatga keltiradigan segmentlardan iborat model ishlab chiqildi hamda uni tashkiliy va boshqaruv mexanizmlari yaratildi.

6. Mamlakat darajasida aholini ommaviy sport sog'lomlashtirish faoliyatini boshqarish bilan bog'liq tashkiliy - metodik va metodologik asoslar ishlab chiqildi.

Nazorat savollari.

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasi qachon tashkil topgan.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasi Xalqaro Olimpiya qo'mitasiga a'zo bo'lgan yili.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasining birinchi prezidenti kim bo'lgan.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasi Xalqaro Olimpiya qo'mitasining nechinchisi sessiyasida tan olingan.
5. O'zbekiston birinchi Prezidenti I.Karimov tashabbusi bilan Toshkent shahrida "Olimpiya shon-shuxrati" muzeyi qachon tashkil etilgan.
6. Sidneyda bo'lib o'tgan XXVII yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi nechta medalni qo'lga kiritishgan.
7. Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan XXXI yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi uchun kimlar oltin medal keltirgan.
8. XXXII yozgi Olimpiya o'yinlarida qaysi davlatda bo'lib o'tdi.
9. XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlarida qaysi davlatda bo'lib o'tadi.
10. XXXIV yozgi Olimpiya o'yinlarida qaysi davlatda bo'lib o'tadi.

IV. GLOSSARIY

Olimpiya bilim asoslari

-M-

MOQ - Milliy Olimpiya qo'mitasi.

National Olympic Committee.

MOQA - Milliy Olimpiya qo'mitalari assotsiatsiyasi.

Association of National Olympic Committees.

MOQ BA - Milliy Olimpiya qo'mitalarining Bosh assambleyasi.

General Assembly of National Olympic Committees.

MSF - Milliy sport federatsiyalari.

National sports federations.

-O-

Olimpiya - Eramizdan oldingi 776-yilda Afinaning olimp tog'larida har xil sport musobaqalari o'tkazilgan. Shu munosabati bilan Olimpiya musobaqa har to'rt yilda bir marta o'tkaziladigan eng katta sport musobaqasidir. Zamonaviy birinchi Olimpiyada o'yinlari 1896-yilda Afina shahrida bo'lib o'tgan.

Different sport games held at ancient Olympic in 776 BC. From this case, Olympic games have been the greatest event of every four year. First Olympic games held in Afina in 1896.

Olimpiya madaniyati - bu Olimpiya Xartiyasi g'oyalari, Olimpizm falsafasiga mos bo'lgan, inson tomonidan to'plangan bilimlar, me'yorlar, kadriyatlar, xatti-harakat namunalarining yig'indisidir.

it is a collection of ideas, norms, values, and patterns of behavior accumulated by man, in accordance with the ideas of the Olympic Charter, the philosophy of Olympism.

Olimpizm - sport harakatining ma'naviy asosi bo'lib, unda gumanistik (insonparvar) g'oyalar yotadi (kishilarning yaxshi niyatlari, tinchlik, hamkorlikka intilish). Olimpizmning mazmun-mohiyati insonga, shaxsga, jamiyatga xizmat qilishdan iborat.

is the spiritual basis of the sports movement, in which humanistic (humane) ideas lie (people's good intentions, peace, aspiration for cooperation). The essence of Olympism is to serve man, the individual, society.

Olimpiya o'yinlari - Olimpiya harakati tarixi, Olimpizmning gumanistik g'oyalari va qadriyatlari to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish jarayoni.

The process of forming knowledge about the history of the Olympic movement, the humanistic ideas and values of Olympism.

Olimpiya o'yinlari - qadimdan eng ezozlangan bayramlardan biri hisoblangan.

OOK - Osiyo Olimpiya kengashi.

Asian Olympic Council.

OH - Olimpiya harakati.

Olimpiya bilim asoslari

Olympic movement.

OO' - Olimpiya o'yinlari.

Olympic Games

-S-

Sport natijalari - sportdagi son va sifat darajasining ko'rsatkichidir.

quantitative and qualitative indicator of the level of the frame.

-X-

Xalqaro Olimpiya akademiyasi - Olimpiya harakati g'oyalari, jismoniy tarbiya hamda sport nazariyasi va amaliyotini o'rganish hamda targ'ib qilish bo'yicha ixtisoslashgan muassasa bo'lib, Xalqaro Olimpiya qo'mitasi rahbarligi ostida harakat qiladi.

Is an institution specializing in the study and promotion of Olympic movement ideas, physical education and sports theory and practice, and operates under the auspices of the NOC. Has long been considered one of the most revered holidays.

XOQ - Xalqaro Olimpiya qo'mitasi.

International Olympic Committee.

XSF - Xalqaro sport federatsiyalari.

International sports federations.

Olimpiya bilim asoslari

1. Qadimgi Olimpiya o'yinlari qachon o'tkazilgan?

776-yil
667-yil
536-yil
796-yil

2. Qadimgi Olimpiya o'yinlari qayerda o'tkazilgan?

Gretsiya (Afina)
Italiya (Rim)
Fransiya (Parij)
Angliya (London)

3. Gerakl o'z oyoqlari kafti bilan yugurish masofasini belgilagan va u 600 yuz oyoq kafti bilan nechi metr bosib o'tgan?

192 m. 27 sm
197 m. 35 sm
190 m. 27 sm
194 m. 35 sm

4. "Stadiy" so'zidan qanday so'z kelib chiqan?

"Stadion"
"Maydon"
"G'olib"
"Start"

5. Qadimgi Olimpiya o'yinlarining g'oliblari qanday nomlangan?

"Olimpionik"
"Olimpik"
"Olimpiada g'oliblar"
"Chempionik"

6. Qadimgi Olimpiya o'yinlarida kimlar ishtirok etishi mumkin edi?

Ozod grek fuqarolari
Barcha fuqarolar
Chet elliklar
Ozod fuqarolar

7. Qadimgi Olimpiya o'yinlarida kimlar ishtirok etishi mumkin bo'lmagan?

Qullar, ayollar va chet elliklar
Ayollar va qullar
Chet elliklar
Ozod bo'lmagan fuqarolar

8. Zamonaviy Olimpiya o'yinlari asoschisi?

Per de Kuberten
Demetrius Vikelas
Xuan Antonio Samaranch
Everi Brendedj

9. 1892-yil 25-noyabrda o'zining mashhur "Olimpizmning uyg'onishi" ma'ruzasi bilan kim ishtirok etgan?

Per de Kuberten
Xuan Antonio Samaranch
Demetrius Vikelas
Yuxannes Zigfrid Edstryom

10. Per de Kuberten Sorbonna universitetida qanday ma'ruza bilan ishtirok etgan?

"Olimpizmning uyg'onishi"
"Olimpiya olg'a"
"Olimpiya yo'li"
"Olimp sari"

11. I-Xalqaro sport kongressi qachon o'tkazilgan?

1894-yil 16-23-iyun
1892-yil 16-23-iyun
1892-yil 23-iyun
1894-yil 16-iyul

12. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi qachon tashkil topgan?

1894-yil 23-iyun
1892-yil 25-noyabr
1896-yil 16-aprel
1892-yil 16-iyun

13. Xalqaro "Olimpiya kuni" qachon tashkil topgan?

1894-yil 23-iyun
1894-yil 16-iyun
1894-yil 6-aprel
1894-yil 15-aprel

14. 23-iyun sanasi har yili butun dunyoda qanday bayram nishonlanadi?

"Olimpiya kuni"
"Olimp tog'i"
"Olimpiya yo'li"

“Olimp”

15. Birinchi zamonaviy Olimpiya o‘yinlari qayerda o‘tkazilgan?

Gretsiya (Afina)
Fransiya (Parij)
Angliya (London)
Shvetsariya (Lozanna)

16. Birinchi zamonaviy Olimpiya o‘yinlari qachon o‘tkazilgan?

1896-yil
1895-yil
1894-yil
1892-yil

17. Birinchi zamonaviy Olimpiya o‘yinlarida nechta sport turidan o‘tkazilgan?

9 ta
10 ta
11 ta
8 ta

18. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining birinchi Prezidenti kim bo‘lgan?

Dimetrus Vikelis
Per de Kuberten
Godfri de Blone
Tomas Bax

19. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining birinchi Prezidenti qaysi mamlakat vakili bo‘lgan?

Gretsiya
Fransiya
Angliya
Shvetsariya

20. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining ikkinchi Prezidenti etib kimni saylashgan?

Per de Kuberten
Dimetrus Vikelis
Xuan Antonio Samaranch
Tomas Bax

21. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasini eng ko‘p boshqargan Prezidenti kim bo‘lgan?

Per de Kuberten

Xuan Antonio Samaranch
Everi Brendedj
Anri de Bayye-Latur

22. “Olimpizm otasi” nomi bilan kimni atashgan?

Per de Kuberten
Demetrius Vikelas
Yuxannes Zigfrid Edstryom
Xuan Antonio Samaranch

23. Olimpiya o‘yinlari shiorini ketma-ketligini aniqlang?

Tezroq, balandroq, kuchliroq, birgalikda
Birgalikda, balandroq, tezroq, kuchliroq
Kuchliroq, birgalikda, balandroq , tezroq
Barcha javoblar to‘g‘ri

24. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi shtab-kvartirasi qaysi davlatda joylashgan?

Shvetsariya (Lozanna)
Angliya (London)
Gretsiya (Afina)
Fransiya (Parij)

25. Olimpiya xalqalar ranglarini ketma-ketligini aniqlang?

Ko‘k, qora, qizil, sariq, yashil
Qora, ko‘k, qizil, yashil, sariq
Sariq, yashil, qizil, ko‘k, qora
Qizil, sariq, qora, yashil, ko‘k

26. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasini hozirda boshqarib kelayotgan Prezident kim?

Tomas Bax
Graf Jak Rogge
Xuan Antonio Samaranch
Lord Maykl Killanin

27. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi ta‘sis etgan muzeylar soni nechta?

5 ta
8 ta
13 ta
15 ta

28. VI, XII, XIII Olimpiyada o‘yinlari nima sababdan o‘tkazilmagan?

Jahon urushlari

Iqtisodiy inqiroz
Siyosiy munosabatlar
Boykot

29. O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi qachon tashkil topgan?

1992-yil 21-yanvar
1992-yil 14-yanvar
1992-yil 2-sentyabr
1992-yil 23-iyun

30. O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi qaysi yili Xalqaro Olimpiya qo‘mitasiga a‘zo bo‘lgan?

1993-yil sentyabr
1993-yil yanvar
1993-yil iyul
1993-yil iyun

31. O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasining birinchi Prezidenti kim bo‘lgan?

Obid Nazirovich Nazirov
Sobirjon Sobitovich Ro‘ziyev
Aziz Nosirovich Nosirov
Rustam Djavdatovich Qurbanov

32. O‘zbekiston Olimpiya shon-shuxrat muzeyi qachon tashkil topgan?

1996-yil
1997-yil
1995-yil
1994-yil

33. XXVI-Atlanta yozgi Olimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston sportchilari umumjamoa hisobida nechanchi o‘rinni egallashgan?

58 o‘rinni
59 o‘rinni
60 o‘rinni
61 o‘rinni

34. XXVII-Sidney yozgi Olimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston sportchilari umumjamoa hisobida nechanchi o‘rinni egallashgan?

41 o‘rinni
42 o‘rinni
43 o‘rinni
44 o‘rinni

35. XXVIII-Afina yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston sportchilari umumjamoa hisobida nechanchi o'rinni egallashgan?

- 34 o'rinni
- 35 o'rinni
- 36 o'rinni
- 37 o'rinni

36. XXIX-Pekin yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston sportchilari umumjamoa hisobida nechanchi o'rinni egallashgan?

- 40 o'rinni
- 41 o'rinni
- 42 o'rinni
- 43 o'rinni

37. XXX-London yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston sportchilari umumjamoa hisobida nechanchi o'rinni egallashgan?

- 47 o'rinni
- 48 o'rinni
- 49 o'rinni
- 50 o'rinni

38. XXXI-Rio-de-Janeyro yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston sportchilari umumjamoa hisobida nechanchi o'rinni egallashgan?

- 21 o'rinni
- 22 o'rinni
- 23 o'rinni
- 24 o'rinni

39. XXXII-Tokio yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston sportchilari umumjamoa hisobida nechanchi o'rinni egallashgan?

- 32 o'rinni
- 33 o'rinni
- 34 o'rinni
- 35 o'rinni

40. 1996-yil Atlantada bo'lib o'tgan yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi nechta medalni qo'lga kiritishgan?

- 2 ta
- 3 ta
- 4 ta
- 5 ta

41. 2000-yil Sidneyda bo'lib o'tgan yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi nechta medalni qo'lga kiritishgan?

4 ta
3 ta
2 ta
1 ta

42. 2004-yil Afinada bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston terma jamoasi nechta medalni qo‘lga kiritishgan?

5 ta
4 ta
3 ta
2 ta

43. 2008-yil Pekinda bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston terma jamoasi nechta medalni qo‘lga kiritishgan?

6 ta
5 ta
4 ta
3 ta

44. 2012-yil Londonda bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston terma jamoasi nechta medalni qo‘lga kiritishgan?

3 ta
2 ta
1 ta
4 ta

45. 2016-yil Rio-de-Janeyroda bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston terma jamoasi nechta medalni qo‘lga kiritishgan?

13 ta
9 ta
7 ta
11 ta

46. 2020-yil Tokioda bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston terma jamoasi nechta medalni qo‘lga kiritishgan?

5 ta
4 ta
3 ta
2 ta

47. Sidneyda bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiada o‘yinlarida O‘zbekiston terma jamoasi uchun kim oltin medal keltirgan?

Muhammadqodir Abdullayev
Artur Taymazov

Armen Bagdasarov
Rustam Saidov

48. Afinada bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiada o‘yinlarida O‘zbekiston terma jamoasi uchun kimlar oltin medal keltirgan?

Artur Taymazov, Aleksandr Dokturishvili
Muhammadqodir Abdullayev, Artur Taymazov
Artur Taymazov, Magomed Ibragimov
Rustam Saidov, O‘tkirbek Xaydarov

49. Rio-de-Janeyroda bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiada o‘yinlarida O‘zbekiston terma jamoasi uchun kimlar oltin medal keltirgan?

Hasanboy Do‘smatov, Shahobiddin Zoirov, Fazliddin G‘oibnazarov, Ruslan Nurudinov
Artur Taymazov, Rishod Sobirov, Ruslan Nurudinov
Shaxram G‘iyosov, Bektemir Meliqo‘ziyev, Rustam To‘laganov
Murodjon Ahmadaliyev, Diyorbek O‘rozboyev, Elmurat Tasmuradov

50. Tokioda bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiada o‘yinlarida O‘zbekiston terma jamoasi uchun kimlar oltin medal keltirgan?

Ulug‘bek Rashitov, Akbar Jo‘rayev, Bahodir Jalolov
Ulug‘bek Rashitov, Ruslan Nurudinov, Bekzod Abdurahmonov
Akbar Jo‘rayev, Davlat Bobonov, Hasanboy Do‘smatov
Bahodir Jalolov, Bekzod Abdurahmonov, Davlat Bobonov

51. XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlari qaysi davlatda bo‘lib o‘tadi?

Fransiya (Parij)
Gretsiya (Aфина)
Yaponiya (Tokio)
Angliya (London)

52. XXXIV yozgi Olimpiya o‘yinlari qaysi davlatda bo‘lib o‘tadi?

AQSH (Los-Andjeles)
Angliya (London)
Fransiya (Parij)
Germaniya (Berlin)

VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2018. – 592 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2019. – 592 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // <http://lex.uz/acts/20596>
6. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi O'RQ-394-son “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/-2742233>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son “O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” farmoni // <https://lex.uz/docs/-4711327>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son “Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni // <https://lex.uz/docs/-5077667>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida”gi PQ-5281-son qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrda “yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va «workout» sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5282-son qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi 355-son “Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-6093267>

III. Maxsus adabiyotlar

13. Xo'jayev F., Xo'jayeva S. Jismoniy tarbiya tarixi. [Matn]: darslik/ F.Xo'jayev, S.Xo'jayeva.-Toshkent: "Umid Design", 2021.-271 b.

14. Normurodov A.N., Morgunova I.I. Olimpiya ta'lim asoslari. Darslik. – Toshkent: ITA PRESS, 2019. – 143 b.

15. Sobirova L. Olimpiya va paralimpiya tarixi va o'yin qoidalari [Matn]: o'quv qo'llanma / L. Sobirova. – Toshkent: "O'zkitobsavdonashriyoti", 2020. – 140 b.

16. To'xtamirzayev M., Turdiyev F.K., Rasulova M., "Olimp sari". (o'zbek va rus tillarida). T.: "Navro'z", 2017.

17. Xadiyatullayev Z.SH., "Olimpiya bilim asoslari". (o'zbek tilida). [Matn]: O'quv qo'llanma. - T.: "Umid design"– nashriyoti, 2022. – 177 b.

18. Islomova X.F., Turdiyev F.K., Xadiyatullayev Z.SH., Turdonova S., "Basics of olympic knowledge". (ingliz tilida). [Matn]: O'quv qo'llanma. - T.: "Umid design"– nashriyoti, 2022. – 175 b.

19. Ernazarov E. Olimpiada–jahon sporti bayrami. Ilmiy-ommabop risola.T., 2008.

IV. Elektron ta'lim resurslari

1. [http:// www.edu.uz](http://www.edu.uz)
2. [http:// www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [https:// www.minsport.uz](https://www.minsport.uz)
4. [http:// www.olympic.uz](http://www.olympic.uz)
5. [http:// www.sports.uz](http://www.sports.uz)
6. [http://ww.uzdjtsu.uz](http://www.uzdjtsu.uz)
7. [https:// www.sportedu.uz](https://www.sportedu.uz)